

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 240 (1029), 2023-yil 18-noyabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



KATTA IQTISODIY SALOHİYATGA EGA SURXONDARYODA INVESTITSIYA JALB QILISH VA SANOATNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA KENG IMKONIYATLAR MAVJUD

Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 16-17-noyabr kunlari hududlar iqtisodiyoti, muhim ijtimoiy dasturlar ijrosi bilan tanishish maqsadida Surxondaryo viloyatida bo‘ldi.



Tashrifning ikkinchi kuni Termiz shahrida barpo etilgan Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasini borib ko‘rdi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 21-apreldagi qaroriga muvofiq, mamlakatimizning barcha hududlarida yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari tashkil etilmoqda. Bu ularning tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va yuritishlari uchun zamin bo‘lmoqda.

Termiz shahri Tinchlik mahallasi hududida ham shunday sharoit tashkil

etildi. 2 gektar maydondagi binolarda jami 42 ta loyiha joylashtirildi. Ular qurilish materiallari, kimyo va neft-kimyo, mebelsozlik, oziq-ovqat, to‘qimachilik sanoatiga taalluqli. Binolarni xarid qilish, uskunalar olib kelish va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasidan imtiyozli kreditlar tijorat banklari orqali ajratiladi. Barcha korxonalar ishga tushgach, 500 dan ortiq ish o‘rni yaratiladi.

Davlatimiz rahbari bu yerda joylashtirilgan korxonalar mahsulotlarini

ko‘zdan kechirdi. Ulardan biri anor sharbatini qadoqlab, qo‘shni davlatlarga eksport qilmoqda. Yana biri kiyim va gilam to‘qishni yo‘lga qo‘yib, xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlagan.

Prezident bunday sanoat zonalari viloyatning har bir tumanida barpo etish, mahallalarda hunarmandchilik, kasanachilikni kengaytirish zarurligini ta‘kidladi. Ikki yillik tajribadan kelib chiqib, Surxondaryoda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha alohida qaror qabul qilish, bunga 50 million

dollar mablag‘ ajratish bo‘yicha taklif ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

— Bugungi tadbirkor yoshlar — Yangi O‘zbekiston mahsuli. Ularning bilimi ham, intilishi ham yangicha. Shuning uchun sanoat zonalari yoshlarning o‘ziga berish kerak. Bu tumanlar uchun tayyor “loyihalar fabrikasi” bo‘ladi. Mutasaddilar faqat korxonalarni innovatsiyaga o‘tkazishga, bozorga chiqishga ko‘maklashishi kerak. Bunda asosiysi — tannarx, sifat, raqobat, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shuningdek, bu viloyat yoshlarining sportga qobiliyati zo‘rligi, lekin ular shug‘ullanayotgan sport turlari cheklanib qolgan qayd etildi. Shu bois, Surxondaryo yoshlarini sportga jalb qilish bo‘yicha qaror loyihalarni ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Bu maqsadlarga 30 milliard so‘m yo‘naltirilishi ko‘zda tutilmoqda. “Uchqizil” suv omborida baydarka va kanoeda eshakk eshish bazasi tashkil qilinadi.

Bu yerda mahalliy sanoat mahsulotlari namoyish etildi, investitsiya

loyihalari taqdimoti o‘tkazildi. Surxondaryo viloyatida umumiy qiymati 4 milliard 600 million dollarlik 82 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Buning 4 milliard dollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyadir. Energetika, kimyo, tog‘-kon, qurilish materiallari, to‘qimachilik va boshqa sanoat tarmoqlaridagi bu loyihalarda qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar, o‘n minglab ish o‘rni yaratiladi.

[Davomi 2-betda](#)

“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI VA “NAVOIYURAN” DAVLAT KORXONASI JAMOALARIGA

Qadri vatandoshlar!

Siz, azizlarni Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil etilgani va yurtimizda uran sanoatiga asos solinganining 65 yilligi bilan chin qabimdan samimiy tabriklayman.

Sizlarning fidokorona mehnatingiz bilan bepoyon Qizilqum bag‘ridan qazib olinayotgan, dunyo miqyosida yuksak e‘tirof etilayotgan oltin, tabiiy uran va boshqa nodir qazilma boyliklar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashda beqiyos strategik ahamiyatga ega ekani barchamizga yaxshi ma‘lum.

Shu ma‘noda, 40 dan ortiq millatga mansub qariyb 50 ming nafar yuqori malakali ishchi, muhandis va mutaxassislar mehnat qilayotgan mazkur kombinat va 3 yil oldin uning tarkibidan ajralib chiqqan “Navoiyuran” korxonasi milliy sanoatimiz faxri, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Keyingi yillarda soha rivojiga qaratilayotgan ulkan e‘tibor hamda ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalar jadal joriy etilayotgani tufayli kombinat oltin ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi xorijiy kompaniyalar orasida 7-o‘rindan 4-o‘ringa ko‘tarildi. “Muruntov” koni esa xalqaro reytinglarda yuqori pog‘onalarni egallab kelmoqda.

Qisqa muddatda kombinatda 23 ta yirik investitsiya loyihasi, jumladan, 5-, 6- va 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodining ikkinchi navbati ishga tushirilib, 15 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratilgani diqqatga sazovordir. Ana shunday sa‘y-harakatlar natijasida bu yil oltin ishlab chiqarish hajmi 2016-yilga nisbatan 25 foiz, tabiiy uran 20 foiz, kumush esa 46 foizga oshganini alohida ta‘kidlash lozim.

Bugungi kunda O‘zbekiston uran qazib olish bo‘yicha dunyoda 5-o‘rinni egallab turibdi. “Navoiyuran” davlat korxonasi o‘z mahsulotini yuz foiz eksportga yo‘naltirmoqda.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida yangi quvatlar uchun zarur asbob-uskuna va jihozlar

hududning o‘zida ishlab chiqarilmoqda. Birgina Navoiy mashinasozlik zavodida yiliga o‘rtacha 15 ming turdan ziyod import o‘rnini bosadigan mahsulotlar tayyorlanayotgani buni tasdiqlaydi.

Soha uchun malakali muhandis kadrlar yetkazib berish maqsadida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining moddiy-texnika bazasi va ilmiy-pedagogik salohiyati mustahkamlanmoqda. Murakkab texnologik jarayonlarni asosan ana shunday oliyohlarimizda ta‘lim olgan azmu shijoatli yoshlarimiz boshqarayotgani barchamizni quvontiradi.

Ishchi va xizmatchilar mehnatini rag‘batlantirish, ularning mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash doimo e‘tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda. Ko‘plab konchilarimiz Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. Bugungi bayram munosabati bilan yana bir guruh soha vakillari faxriy unvon, orden va medallarga sazovor bo‘ldilar. Ularni ana shunday yuksak mukofotlar bilan chin dildan tabriklab, kelgusi faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmatli do‘stlar! Biz “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida ushbu sohada ham ko‘plab ishlarni amalga oshirishni reja qilganmiz. “O‘qotov” konini o‘zlashtirish, ko‘plab yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda uran qazib olish va qayta ishlash hajmini uch barobar ko‘paytirish shular jumlasidandir.

O‘z hayotini shunday muhim sohaga bag‘ishlagan siz, azizlar jamoalarimizdagi shonli mehnat an‘analarni munosib davom ettirish, mamlakatimiz kon sanoati shuhratini yanada oshirish uchun bundan buyon ham katta kuch-g‘ayrat bilan mehnat qiliasizlar, deb ishonaman.

Sizlarni bugungi qutlug‘ ayyom bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt, oljanob faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

ISH HAQI, PENSİYALAR VA NAFAQALAR MIQDORINI OSHIRISH TO‘G‘RISIDA

Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘lamini kengaytirish, fuqarolarning daromadlarini izchil oshirib borish siyosatini davom ettirish hamda ularning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish maqsadida:

1. 2023-yil 1-dekabrden boshlab: budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdori **7 foizga**; bazaviy hisoblash miqdori **3 foizga oshirilsin.**

2. 2023-yil 1-dekabrden boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida: mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori — oyiga **1 050 000 so‘m**; bazaviy hisoblash miqdori — oyiga **340 000 so‘m**; pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori — oyiga **372 000 so‘m**;

yoshga doir eng kam pensiya miqdori — oyiga **725 000 so‘m**; nogironlik pensiyalari, jumladan, ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi nogironlik pensiyasining eng kam miqdori — oyiga **800 000 so‘m**;

mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nogironlik nafaqasi va bolalikdan nogironlik bo‘lgan shaxslarga beriladigan nafaqa miqdori — oyiga **800 000 so‘m**;

1941-1945-yillardagi urush oqibatida nogiron bo‘lgan shaxslar va uning qatnashchilari, shuningdek, fashistlar konslagerlarining voyaga yetmagan sobiq mahbuslari va Leningrad shahri qamal qilingan davrda ishlagan shaxslarning eng kam pensiya miqdori ustamalarini inobatga olgan holda — oyiga **3 527 000 so‘m**;

belgilangan yoshga doir eng kam pensiya miqdoridan (725 000 so‘mdan) 800 000 so‘mgacha pensiya oluvchilarning yoshga doir pensiyalari miqdori — oyiga **800 000 so‘m**;

zarur ish stajiga ega bo‘lmagan keksa yoshdagi fuqarolarga beriladigan nafaqa miqdori — oyiga **608 000 so‘m**;

ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi yoshga doir pensiyaning eng kam miqdori qo‘shimcha to‘lovni hisobga olgan holda — oyiga **608 000 so‘m**; o‘zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo‘lgan bolaning qonuniy vakiliga beriladigan nafaqa miqdori — oyiga **608 000 so‘m**;

boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi oluvchilarning bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a‘zosi uchun nafaqa miqdori — oyiga **608 000 so‘m** etib belgilansin va keyingi har bir mehnatga qobiliyatsiz oila a‘zosi uchun — **212 000 so‘mdan qo‘shilsin**;

boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi oluvchilarning bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a‘zosi uchun pensiyaning eng kam miqdori — oyiga **608 000 so‘m etib belgilansin va keyingi har bir mehnatga qobiliyatsiz oila a‘zosi uchun amaldagi tartibga muvofiq pensiya to‘lansin.**

3. Budget tashkilotlari xodimlarining ish haqlari, pensiyalar va nafaqalar miqdori oshirilishi bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplasin.

4. Ish beruvchilarga ish haqi miqdorini qonunchilik hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam

bo‘lmagan holda to‘lashni ta‘minlab, ish haqi miqdorini mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga muvofiq oshirish tavsiya etilsin.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi mazkur Farmonning ijrosini ta‘minlash hamda ta‘lim va tibbiyot muassasalarida qo‘shimcha quvvatlar yaratilishi, o‘quvchilar soni hamda birlamchi tibbiyot muassasalari sonining oshishi natijasida qo‘shimcha shtat birliklari kiritilishi hisobiga ish haqi xarajatlari uchun talab etiladigan qo‘shimcha mablag‘larning Davlat byudjetidan ajratilishini ta‘minlasin.

6. Iqtisodiyot va moliya vazirligi: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan birgalikda ushbu Farmonning maqsadi, vazifalari va undan kutilayotgan natijalarni ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish ishlarini tashkil qilsin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

7. Mazkur Farmonning ijrosini ta‘minlash uchun mas‘ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o‘rinbosari J.A.Qo‘chqorov belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas‘ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2023-yil 17-noyabr

SH. MIRZIYOYEV



KATTA IQTISODIY SALOHİYATGA EGA SURXONDARYODA INVESTITSIYA JALB QILISH VA SANOATNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA KENG IMKONIYATLAR MAVJUD

Boshlanishi 1-betda

Termiz shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida Surxondaryo viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazildi.

Hudud ichkil rivojlanmoqda. Oldinda rejalar, imkoniyatlar ham ko'p. Xususan, 3 milliard 300 million dollarlik 4 ta yangi yirik sanoat loyihasi shakllantirilgan. Bular hisobiga viloyat iqtisodiyotiga yiliga 6,5 trillion so'm, byudjetiga 1,6 trillion so'm, eksportiga 100 million dollar qo'shiladi, 2 mingga yuqori daromadli ish o'rinlari ochiladi. Jumladan, Boysundagi qariyb 3 milliard dollarlik gaz-kimyo majmuasida yiliga 120 million dollarlik eksport tushumi qo'shiladi. Geologiya qidiruv ishlari kengaytirilib, yana 100 milliard kub metr gaz zaxiralari ochiladi.

— Surxondaryoda juda katta iqtisodiy salohiyat, yerosti va yerusti boyliklari, mard, mehnatkash xalqi bor. Hozircha bu salohiyatning yarmidan ham foydalanilmayapti. Sharoit yaratib, ish o'rni, investitsiya, eksport va tushumni karrakara oshirish lozim, — dedi davlat rahbari.

Shu bois, kelgusi yili viloyatda 1,5 milliard dollar investitsiya olib kelib, sanoatda 12 trillion so'm mahsulot ishlab chiqarish, eksportni 500 million dollarga yetkazib, 100 million dollar importni qisqartirish vazifalari ko'rsatib o'tildi. 400 ming aholini band qilish viloyat va tuman hokimlarining asosiy vazifasi bo'lishi kerakligi aytiladi.

Viloyatga investitsiya jalb qilish va sanoatni rivojlantirishdagi eng katta zaxira — bu mavjud konlarni ishga solish ekaniga ta'kidlandi.

Sariosiyoda qo'rg'oshin, rux, oltin va oq marmar, Boysun va Sariosiyoda ko'mir, Sherobodda kaliy o'g'itli zaxiralarni o'zlashtirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi. Tog'li

hududlarda geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish vazifasi qo'yildi.

Surxondaryo o'zining tabiiy tuproqliq sharoiti bilan erdagi mahsulotlarni yetishtirishda birinchi o'rinda bo'lishi mumkin. Lekin hosildorligi yuqori urug' va ko'chat bilan ta'minlashda muammlar bor. Shu bois, Qishloq xo'jaligi vazirligiga 10 ta tumanida in vitro laboratoriyalarini tashkil qilish topshirildi.

Kelgusi yilda dala chetlarida quritish va saralash uskunalari hamda 70 ta kichik sovitkichlar o'rnatiladi. 100 ming gektarda ixcham issiqxonalar tashkil qilib, barra piyoz, brokkoli, rozmarin, rukkola, qizil rayhon, yalpiz kabi eksport boqinlar yetishtiriladi.

Angor, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Oltinsoyda 6 ta saqlash, quritish va saralash markazi, Termiz tumanida Janubiy Koreya bilan birga 50 million dollarlik logistika xabi tashkil etilishi belgilandi.

Ingichka talali g'o'za 15 foizgacha kam suv talab qiladi va etishtiriladi. Shu bois, bunday g'o'za navlari maydonini 50 ming gektargacha kengaytirish, uni qayta ishlashni 30 foizga yetkazish, molekulyar genetik va seleksiya bo'yicha qo'shma loyiha va zamonaviy laboratoriya tashkil etishiga topshiriq berildi.

Yig'ilishda suv tanqisligi muammosiga ham alohida to'xtalib o'tildi. Surxondaryoda 80 foiz yerlar nasos orqali sug'oriladi. Suv tannarxi 2 barobar qimmatga tushyapti, yiliga 20 million kilovatt soat elektr behuda sarflanyapti.

— "Suv tekin emas", degan g'oyani aholiga chuqur singdirish, uni mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar va keng jamoatchilik bilan birga kundalik turmush qoidasiga aylantirish lozim, — dedi Prezident.

Mutasaddilarga 47 ta kanalni betonlash bo'yicha ikki yillik dastur ishlab chiqish, suv yo'qotilishi ko'p bo'lgan 6 tasini ta'mirlash bo'yicha topshiriq berildi.

Viloyatning turizm salohiyati ham yuqori. Bu yerda 600 dan ziyod madaniy

meros va turizm manzillari bor. Hozirda "Dalvarzintepa" yodgorligida ochiq osmon muzeyini tashkil qilish bo'yicha ish boshlangan.

Buni davom ettirib, Boysundagi "Boybuloq", "Teshiktosh" va "Machay" g'orlari, Uzunarda qal'asini ham shunday muzeylarga aylantirish kerakligi ta'kidlandi. Sherobodagi "Xatak" g'ori va Zarautsoy qoyatoshiga xorijiy olimlar ekspeditsiyasi jalb etiladi. Sangardak kabi yana 10 ta mahalla turizm qishlog'iga aylantiriladi.

"Omonxona" sanatoriyasi ta'mirlanib, quvvati kengaytiriladi. Yana bitta yangi sanatoriy ham quriladi. Boysun, Oltinsoy, Sariosiyo va Sherobodda dor yo'li, mehmonxona va savdo xizmatlarini tashkil qilish bo'yicha 200 million dollarlik loyiha amalga oshiriladi.

Yig'ilishda ijtimoiy masalalarga ham alohida e'tibor qaratildi.

Kasalliklarning oldini olish uchun har bir mahalla va dorixonalarda fitobarlar tashkil qilish, uy sharoitida qilinadigan mashqlar dasturi va sog'lom ovqatlanish menyusini ishlab chiqish muhimligi ta'kidlandi.

"Boysun", "Shalola", "Boychechak", "Bulbuli go'yo" kabi badiiy jamoalarning xalqaro festivallarda ishtirok etishiga ko'maklashish, doston va temalarning "Oltin fondi" yaratish zarurligi aytiladi.

Surxon yoshlarini sportga jalb etishni kengaytirish bo'yicha alohida qaror qabul qilinishi belgilandi.

Yig'ilish davomida vazirlar va hokimlar, ziyolilar, tadbirkorlarning fikr va takliflari eshitildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "Indenim Textile" klasterining Termiz shahridagi to'qimachilik korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Bu korxonada 2019-yil ishga tushirilgan bo'lib, uning umumiy qiymati 10 million dollardan ziyod. Germaniya, Yaponiya, Turkiya va Xitoy kabi davlatlardan keltirilgan ilg'or texnologiya va uskunalari samarasida yiliga 800 turdagi 9 million

dona kiyim-kechaklar ishlab chiqarish quvvati yaratilgan. Ularning bir qismi eksportga, asosiy qismi ichki bozorga — "Indenim" do'konlariga yetkazib berilmoqda.

Davlatimiz rahbari korxonadagi ish jarayonini, mahsulotlarni ko'zdan kechirdi.

— Yurtimizda to'qimachilik xomash-yosi bor, mahsulotlar sifatida ham yaxshilanib boryapti. Faqat bizda dizayn maktabi yo'q. Hozir dunyoda uslublar tez o'zgarayapti. Kiyim korxonalarimiz raqobatbardosh bo'lishi uchun dizayn maktabini rivojlantirish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu borada kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, mutaxassislarini Italiya kabi dizayn sohasi taraqqiy etgan mamlakatlarga tajriba uchun yuborish bo'yicha ko'rsatma berildi. Shuningdek, bozorni o'rganish va prognozlashirish hamda tadbirkorlarga ko'maklashish zarurligi ta'kidlandi.

Korxonada monomarkaz tashkil etilgan, ishchilar avval shu yerda o'sqitildi. Bugungi kunda 800 nafar xotin-qizning bandligi ta'minlangan.

"Indenim Textile" klasterining paxta yetishtirish va qayta ishlash, ip-kalava tayyorlash, kiyim ishlab chiqarish hamda sotish zanjiri yaratilgan. Ularda jami 9 ming nafardan ortiq xodim mehnat qilayotir.

Davlatimiz rahbariga korxonaning ishtirokchilari haqida ma'lumot berildi. Kelgusida mato to'qish va bo'yash, kiyim-kechak ishlab chiqarish hajmi oshiriladi. Buning uchun umumiy 55 million dollar investitsiya yo'naltiriladi. Natijada yana 10 mingga yangi ish o'rni yaratilishi kutilmoqda.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning Surxondaryo viloyatiga tashriifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBOEV,
Ikrom AVVALBOEV,
Xolmo'min MAMATRAYIMOV,
O'ZA muxbirlari



18-NOYABR — O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BAYROG'I QABUL QILINGAN KUN

Ajdodlarimiz qudratining ramzi bo'lgan muqaddas vatan tug'i — davlat bayrog'i haqida alohida so'z yuritamiz, to'liqlanib she'rilar aytmiz keladi. Bolalarimiz ham bayrog' rasmni chizishni yaxshi ko'radi. O'zimiz ham maktab davrimizda bayroqdagi ranglar, oy-yulduzlar nimani anglatishini erinmay ko'chirib yozar va yod olardik.

"TEPAMDA EGILAJAK O'Z TUG'IM — BAYROG'IM BOR"

Ko'chalarda bayrog'imizni tutgan yuzlab, minglab qo'llar tantanavor yurganida, bayrog' ostida marra sari yugurayotgan sportchilar uni belgilangan nuqtaga yetkazib, ko'ziga surganida, qalbdagi uyg'onadigan ichki bir to'liqlanish — tug'imiz uyg'otgan milliy g'urur, iftixor, aslida. Shu ma'noda, "Davlatimiz bayrog'i — iftixor, ishonch va ezgulik ramzidir!" shiori ostida o'tkazilayotgan tanlovlarida ishtirok etayotgan erimiz egalari davlat bayrog'ida ulug'vorlik mujassamligini ich-ichidan his qilmoqda, qalbida vatanparvarlik ruhi jo'sh urmoqda.

Xususan, maktabgacha ta'lim muassasalarida bayrog' haqidagi she'rilar, rasmlar, maktablarda bayrog'imizni ulug'lovchi turfa mavzularidagi insholar, videoroliklar tanlovlari tashkil etilmoqda.

Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlarida Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari Vodiyl.uz nashri bilan hamkorlikda 18-noyabr — Davlatimiz bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan videoroliklar tanlovini e'lon qildi. Tanlovga kelayotgan ishlar bilan qiziqdik. Farzandlarimizning davlat ramzlariga muhabbati, izlanuvchanligi quvontiradi kishini. Maktab o'quvchilari hatto kimyoviy reaksiya orqali bayrog'imiz ranglarini aks ettirgani ham e'tiborimizni tortdi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan e'lon qilingan "Ulug'imсан, Vatanim" mavzusidagi videoroliklar tanloviga qatnashish istagidagilar safi ham tobora kengayib boryapti. Davlat bayrog'i haqidagi uch daqiqadan oshmaydigan videoroliklar g'oliblari qilgan mehnatidan cheksiz faxr tuyish barobarida televizor, kitoblar

bizni ulug' maqsadlar tomon boshlovchi buyuk mash'alaning 32 yilligi barchamizga muborak bo'lsin!", degan xitoblar bugun minglab yoshlarning ko'ngliga kirib bormoqda. Yozuvchilar uyushmasining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida esa, tug'imizni tarannum etguvchi go'zal she'rilar berib borilmoqda.

Abdulla Oripovning quyidagi misralarini yod olgan murg'ak qalblarda Vatanga muhabbat hissi tug'yon urayotgan bo'lsa, ne ajab!

Garchi doim undandir
gulchechaklar bog'imda,
Temur va Navoiyni
eslaymiz takror-takror.
Men-ku uzoq yasharman,
lekin ketar chog'imda
Tepamda egilajak o'z tug'im —
bayrog'im bor!

Davlatimiz bayrog'ini milliy aviakompaniyamiz samolyotlari, xalqaro yo'nalishtagi poyezdlarimiz bilan dunyo mamlakatlarga "borib", milliy iftixorimizni namoyon etib kelyapti. Endilikda esa xorijdan kelgan har qanday mehmonning ko'zi, avvalo, Toshkent xalqaro aeroporti ro'parasidagi 62 metrlig O'zbekiston bayrog'iga tushishi barchamizga g'urur baxsh etadi. Atrofidagi kichikroq 38 ta bayrog' bilan u o'zgacha ko'rinish kasb etgan. Yo'l o'tkazgichdan aeroportga chiqishdagi aylana oldidagi interaktiv favvara, o'ng tomondagi ulkan proyeksiya ekranini O'zbekistondan chetga chiqmaydiganlar uchun oddiy holat bo'lishi mumkin. Biroq xorijda yurib, yurt sari oshiqib


NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI 65 YOSHDA!

Navoiy shahridagi "Farhod" madaniyat saroyida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil etilganining 65 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tizim fidoyilariga yo'llagan bayram tabrigini Bosh vazir Abdulla Aripov o'qib eshittirdi.

Bayram tabrigida ta'kidlanganidek, 40 dan ortiq millatga mansub qariyb 50 ming nafar yuqori malakali ishchi, muhandis va mutaxassis mehnat qilayotgan mazkur kombinat va 3 yil oldin uning tarkibidan ajralib chiqqan "Navoiyuran" korxonasi milliy sanoatimiz faxri, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Keyingi yillarda soha rivojiga qaratilayotgan ulkan e'tibor hamda ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalar jadal joriy etilayotgani tufayli kombinat oltin ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi xorijiy kompaniyalar orasida 7-o'rindan 4-o'ringa ko'tarildi. "Muruntov" koni esa



KON-METALLURGIYA SOHASI MAMLAKATIMIZDA IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING MUHIM ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA O'Z O'RINI MUSTAHKAMLAB, JADAL RIVOJLANIB BORMOQDA. SO'NGGI YILLARDA SANOAT KORXONALARINI MODERNIZATSIYA QILISH, ISHLAB CHIQARISHNI TEKNIK VA TEXNOLOGIK JIHATDAN QAYTA JIHOZLASH BO'YICHA FAOL INVESTITSIYA JARAYONI AMALGA OSHIRILAYOTGANI "NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AKSIYADORLIK JAMIYATI FAOLIYATIDA HAM TUB BURILISH, IQTISODIY YUKSALISH DAVRINI BOSHLAB BERDI, DESAK ASLO MUBOLAG'A BO'LMAYDI.

xalqaro reytinglarda yuqori pog'onalarni egallab kelmoqda.

Qisqa muddatda kombinatda 23 ta yirik investitsiya loyihasi, jumladan, 5-, 6- va 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodining ikkinchi navbati ishga tushirilib, 15 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilgani diqqatga sazovordir.

Ana shunday sa'y-harakatlar natijasida bu yil oltin ishlab chiqarish hajmi 2016-yilga nisbatan 25 foiz, tabiiy uran 20 foiz, kumush esa 46 foizga oshganini alohida ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda O'zbekiston uran qazib olish bo'yicha dunyoda 5-o'rinni egallab turibdi. "Navoiyuran" davlat korxonasi o'z mahsulotini yuz foiz eksportga yo'naltirmoqda.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida yangi quvvatlar uchun zarur asbob-uskuna va jihozlar hududning o'zida ishlab chiqarilmoqda.

Birgina Navoiy mashinasozlik zavodida yiliga o'rta 15 ming turdan ziyod import o'rini bosadigan mahsulotlar tayyorlanayotgani buni tasdiqlaydi.

Soha uchun malakali muhandis kadrlar yetkazib berish maqsadida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining moddiy-texnika bazasi va ilmiy-pedagogik salohiyati mustahkamlanmoqda.

Murakkab texnologik jarayonlarni asosan, ana shunday oliy o'quv yurtlarimizda ta'lim olgan azmu shijoatli yoshlarimiz boshqarayotgani barchamizni quvontiradi.

Tadbirda davlatimiz rahbarining tegishli farmoni bilan taqdirlangan soha ilg'orlari mukofotlarni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov tantanali ravishda topshirdi.

— 30 yildan buyon konchilik tizimida mehnat qilib kelmoqdaman, — deydi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Markaziy kon boshqarmasi sex boshlig'i Yo'ldosh G'aniyev. — Bu yilgi 65 yillik bayram men uchun qo'shaloq bayramga aylanadi. Yurtboshimiz farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" faxriy unvoni sohibi bo'ldim. Bu yuksak mukofot menga g'urur va iftixor baxsh etdi.

Qayd etish kerak, kon-metallurgiya sohasi mamlakatimizda iqtisodiyot taraqqiyotining muhim asoslaridan biri sifatida o'z o'rini mustahkamlab, jadal rivojlanib bormoqda. So'nggi yillarda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha faol investitsiya jarayoni amalga oshirilayotgani "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati faoliyatida ham tub burilish, iqtisodiy yuk-salish davrini boshlab berdi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Shu bilan birga, yirik sanoat korxonasida kadrlar salohiyatini yuksaltirish, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ishchi-xodimlar xorijiy mamlakatlarining yirik korxonalarida malaka oshirib kelayotgani va tajribalarini amaliyotga tatbiq etayotgani esa korxonada rivojida muhim rol o'ynamoqda. Bugungi kunda Navoiy kon-metallurgiya kombinati oltin ishlab chiqarish bo'yicha dunyoning 10 ta eng yirik sanoat korxonasidan biriga aylangan ham yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlohotlar samarasidir.

Tantanali tadbirda viloyat hokimi Normat Tursunov, "NKMK" AJ boshqaruvi raisi — Bosh direktori Quvondiq Sanaqulov so'zga chiqib, tizim xodimlarini tabrikyladi.

Tadbir poytaxtdan tashrif buyurgan san'atkorlar va "Farhod" madaniyat saroyi badiiy jamoalari tomonidan tayyorlangan kuy-ko'shiqlar bilan davom etdi.

Abduvalli BO'RIYEV,
O'ZA muxbiri



to'plami, diplom bilan taqdirlanayotgani yoshlar qalbidagi o'z yurtidan iftixor tuyg'usini yuksaltirishga xizmat qilayotir.

Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganining 32 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi yig'ilish bayoni ijrosi yuzasidan yurtimiz bo'yab "Muqaddasdir Vatan bayrog'i" shiori ostida tadbirlarga start berildi. Ayni mavzuda Yoshlar ishlari agentligida brifing ham tashkil etildi.

Vatan himoyasidek muqaddas burchni mardona o'tash uchun bayrog'imizni o'pib qasamyod qilayotgan harbiylarimiz qalbidagi olov, ko'zlaridagi jo'mardlikni ko'rib, faxrlanamiz. Aslida, yurtga bo'lgan cheksiz mehr va sadoqatning yorqin ko'rinishi shu bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda yurt bayrog'ini madh etuvchi go'zal so'zlar, samimiy tilaklar bildirilmoqda. Bu borada, ayniqsa, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi telegram tarmog'i, rasmiy sayti tomonidan qo'yib borilayotgan maqolalar, ta'sirchan videoroliklar, hududlarda "Muqaddasdir Vatan bayrog'i" shiori ostidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati beqiyos. Markaz hududidagi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati axborot xizmati xodimlari ham bayrog'imizni sharafovlchi turli chiqishlar bilan faollik ko'rsatmoqda.

"Aziz Vatandosh! Mag'rur elning g'ururi, qadr-qimmatini, irodasini ifodalovchi ramz — bayrog'imiz bor ekan, millat bor, davlat bor, Vatan bor. Bayrog'imiz hamisha jahon sahnasida mag'rur, baland hilpiras. O'zbekiston xalqi uchun mustaqillik, hurlik, tinchlik, barqarorlik timsoli — davlatimiz bayrog'i baland ko'tarilib, yurtdoshlarimiz qalbidagi faxr, iftixor, ona Vatanimizda bo'lgan cheksiz hurmat, chuqur daxldorlik hissini oshirsin. Ajdodlarimiz orzu-amonlari ro'yobi bo'lgan,

keladigan vatandoshlarimiz nafis hilpirab turgan O'zbekiston bayrog'ini ko'rganida, ko'ngil o'zgacha his-hayajonga to'lishi tabiiy.

Bu yangi gap bo'lmasa ham takror aytmiz keladi, zero, Vatan bayrog'i, ayniqsa, yurtdan olidsa har qachongidan aziz, ulug'vor ko'rinadi. Dunyoning yirik sport musobaqalarida sportchilarimiz g'alabaga erishib, faxr bilan bayrog'imizga qubiq turganida, ulug'vor tug'imizning ildizi yuragimizda ekanini anglaymiz. Boshqachaga aytganda, shu yurt farzandlari shu bayrog' ostida birlashadi, ilm-fan va sport olimpiadalarida, xalqaro musobaqalarda ishtirok etar ekan, milliy bayroqdan ma'naviy-ruhiy quvvat oladi. Raqiblari ustidan ishonchli g'alaba qozonganida Vatan bayrog'ini baland ko'taradi. Ko'z yoshlar quvonch yoshlari, shukronalik yoshlari bo'lib, kipurimizga inadi.

Davlatimiz bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan o'tkazilayotgan "Yangi nafas" ommaviy yugurish musobaqasi ham ming-minglab yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarni ezgulikka yetaklayapti.

O'zbekiston yengil atletika federatsiyasi matbuot xizmati ma'lumotlariga ko'ra, ommaviy yugurish musobaqasi respublikaning 15 ta shahrida 3 kilometr, poytaxtda esa 3 va 10 kilometr masofalarda o'tkaziladi. Umumiy hisobda poytaxtda o'tadigan tadbirda 6000 mingdan ziyod, respublika bo'yab esa 100 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz ishtirok etishi kutilmoqda.

Ishonchimiz shuki, yuqoridagi ezgu ishlarning barchasi bitta tuyg'u — milliy o'zligimizni anglash. O'zbekiston degan nomni ulug'lash, shu yurtga munosiblik maqsadidan yuzaga chiqayotganiga shubha yo'q.

Munajat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

BUGUNNING GAPI

"YASHIL" LOYIHALAR VA YANGI IMKONIYATLAR



Abdurauuf QORJOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

To'palang suv ombori Surxondaryo viloyatining 117 ming gektar yer maydoniga, ya'ni Sarosiy, Uzun, Denov, Oltinsoy, Sho'rchi, Bandixon tumanlaridagi ekzorlariga obiyahot yetkazib beradi, uning quyidagilari GESlar janubiy hududlarini elektr quvvati bilan ta'minlaydi. Asosiy suv manbai tog'liklardagi qor va muzliklar hisoblanadi.

Suv omborida 2006-yilda "To'palang" GES ishga tushirilgan. Shundan buyon bu yerda har biri 15 megavatt bo'lgan ikkita agregat ishlab turarkan, ularning o'rtaacha yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichi — 63 million kilovatt soatni tashkil etgan. 2012-2016-yillarda suv omborida qurilish ishlari olib borilib, uning sig'imi 260 million kub metr dan 380 million kub metr-ga oshirilgan.

Prezidentimiz to'pshirig'iga muvofiq, 2017-2021-yillarda uning sig'imi 500 million kub metr-ga yetkazildi. Hozirgi kunda to'g'onning balandligi 185 metr, uzunligi 410 metr, ustki qismining eni 10 metrdan iboratligi ham majmua salohiyatidan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbari 2019-yilning bahorida ushbu inshootdagi modernizatsiya jarayoni bilan tanishar ekan, stansiyada navbatdagi ikkita yangi gidroagregatni qurish yuzasidan bergan edi, — deydi "To'palang gidroelektrstansiyasi" unitar korxonasi rahbari Asror Ulug'ov. — Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan GESni modernizatsiya qilish investitsiya loyihasi ijrosi bo'yicha ishlar 2020-2023-yillar davomida olib borildi. Uning qiymati 84,4 million AQSH dollari-ga teng bo'lib, shundan 46,1 million dollari

o'z mablag'imiz, 38,3 million dollari davlat kafolati ostidagi kreditlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu asosda har biri 72,5 MVtdan iborat bo'lgan ikki agregatni o'rnatish ishlari amalga oshirildi. Shu yilning mart oyidan ular foydalanishga topshirilib, qo'shimcha 145 megavatt "yashil" energiya ishlab chiqarila boshlandi. Shu tariqa GESning umumiy quvvati 175 MVtga chiqdi hamda o'rtaacha yillik ishlab chiqarish imkoniyati esa, 467 million kVt-soatni tashkil etdi.

Ta'kidlash joizki, "To'palang" GESni modernizatsiya qilish loyihasi doirasida boshqaruv to'liq avtomatlashtirildi va inson omilisiz ishlaydigan "aqli" tizim joriy etildi. Prezidentimiz shu yil 16-noyabr kuni mazkur stansiyadagi modernizatsiya ishlari ko'zdan kechirar ekan, bu ishlarni kengaytirish, har bir soyl, imkoniyati bor har bir mahallada mikro GESlar barpo etish mumkinligini ta'kidladi.

Ma'lumki, gidroturbinalar tez oqim tufayli quvvat hosil qiladi. Suv qancha tez oqsa, shuncha ko'p elektr quvvatini ishlab chiqaradi, qurilish jarayonida va foydalanish davrida tabiiy landshaft va atrof-muhitni buzmaydi. Suv sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, asl tabiiy xususiyatini yo'qotmaydi. Ixcham GESlar har jihatdan foydali va nisbatan arzon elektr energiyasi ishlab chiqarishda qo'l keladi.

Sariosiyoda qurilgan gidroinshootlarning yana bir o'ziga xos tomoni shunda, ki, bir suv oqimi orqali ko'p marta "yashil" energiya hosil qilinayotib. Buning uchun daryo suvi maxsus bosim ostida, avvalo, "To'palang" GESiga yo'llanyapti. Undan keyin esa, bundan ikki yarim yil oldin ish boshlagan, biri beridan uncha uzoq bo'lmagan "Zarchob-1" va "Zarchob-2" gidroelektr stansiyalaridagi agregatlarni aylan tiradi.

"Zarchob-1" GESning quvvati 37,4 MVtga teng bo'lib, yiliga 100 million kVt-soat, undan sal pastroqda barpo etilgan ikkinchi stansiya 38,2 MVt quvvati hosil qilgani holda, 12 oyda 101 million kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Ularni qurishda XRR kompaniyasi xorijiy hamkor sifatida ishtirok etdi.

Natijada "To'palang" GES hamda uning quyidagilari joylashgan, "Zarchob-1" va "Zarchob-2" GESlari bilan amaldagi mavjud quvvatlar 251 MVtga, o'rtaacha yillik ishlab chiqarish quvvati 667 million kVt-soatga yetdi, — deydi Asror Ulug'ov. — Buning hisobiga, qo'shimcha ravishda 220 mingdan ortiq xonadonni yoki qariyb 890 ming aholini elektr energiyasi bilan ta'minlash hamda yiliga 180 million kub metr tabiiy gazni iqtisod qilishga erishildi.

To'palang daryosida qurilgan va qurilishi rejalashtirilgan GESlar o'zlarining turiga ko'ra ham o'ziga xoslikka ega. Masalan,

"To'palang" GES yuqori bosimda ishlashi uchun mo'ljallangan to'g'on oldi quvvatlar turkumiga kirs, "Zarchob-1", "Zarchob-2" stansiyalari ochiq va bosimsiz, yopiq derivatsion turdagi inshootlar turiga mansub. Dastlabki loyihalarga ko'ra, yuqori "To'palang" GESlarining yopiq bosimli derivatsion turda qurilishi mo'ljallanyapti. Lekin bu ko'rsatkichlar daryoning gidroenergiya salohiyatidan to'liq foydalanilaypti degani emas. Chunki, yana qo'shimcha quvvatlar qurish imkoniyati mavjud. Shu bois, daryoning quyidagilari qismida yana bir kichik GES — "Zarchob-3" loyihalashtirildi. Davlatimiz rahbarining tashrifi chog'ida uning qurilishiga tamol toshi qo'yildi.

Bugungi kunda jamiyat tomonidan viloyatda umumiy quvvati 7,3 MVt, o'rtaacha yillik ishlab chiqarish quvvati 36,6 million kVt-soat bo'lgan jami 5 ta mikro va kichik GES loyihalari amalga oshirilmogda. Jumladan, joriy yil yakuniga qadar umumiy quvvati 1,3 MVt bo'lgan Qiziriq tumanida "Isfara" mikro GES-1, "Isfara" mikro GES-3 va Qumqo'rg'on tumanida kichik GES loyihalari ishga tushiriladi.

Umumiy quvvati 6,0 MVt bo'lgan "Zarchob-1A" va "Zarchob-2A" kichik GES loyihalari doirasida qurilish ishlari olib borilmoqda. Ushbu loyihalar 2024-yilning birinchi yarim yillik yakuni bilan foydalanishga topshiriladi. Oddiy til bilan aytganda, bir oqim bo'yicha yuqoridan pastga harakat

asosiy ko'rsatkichlar Amudaryo, Surxondaryo daryolari hamda To'palang suv ombori hissasiga to'g'ri keladi

— Prezidentimiz 2021-yilda Termizda bo'lib o'tgan yig'ilishda "To'palang" suv ombori ulkan va toza manba ekanini ta'kidlab, uni aholiga yetkazish bo'yicha loyiha tayyorlash vazifasini qo'yg'nan edi. Ana shu to'pshirig' va imzolangan qarorga muvofiq, ayni kunlarda viloyatning 11 ta tumanida amaliy ishlar olib borilaypti, — deydi "O'zbekgidroenergo" AJ boshqaruvchi raisi Abdug'ani Sanginov. — Bu juda murakkab loyiha bo'lib, dastavval, "To'palang" suv omborining quyidagilari bosimni so'ndirish, suvni tozalash va tarqatish inshootlarini qurishga to'g'ri kelyapti. Shundan so'ng

Ayni paytda "To'palang" suv omboridan viloyat hududlariga ichimlik suv yetkazib berish bo'yicha ishlar qizg'in davom etyapti. Suv quvurlarini tortish uchun mahalliy va xorijlik mutaxassislar jalb etilgan. Birinchi bosqichda uning ulanish nuqtasi aniqlanib, asosiy suv quvurining taqsimot tugunlari bilan uyg'unlashgan rejasi ishlab chiqildi. Ko'rilyotgan chora-tadbirlar aholining istiqbolidagi o'sishini hisobga olgan holda amalga oshirilaypti.

— Yaqin istiqbolning 20 yillik tahliliy prognozlariga ko'ra, Surxondaryo viloyatining aholisi doimiy ravishda ko'payib, ichimlik suvga bo'lgan ehtiyoj ham mutasill ortib boradi, — deydi Abdug'ani Sanginov. — Bu borada viloyatning har bir tumani bo'yicha tahliliy hisob-kitoblarni tayyorlangan. Misol uchun, hozirda Angor tumani aholisi 134 mingdan ko'proq bo'lsa, 2040-yilga borib, qariyb 163 mingga yetishi kutilmogda. Bu esa ana shu mudatda ichimlik suvga bo'lgan talab 960,3 kub metr sekundni tashkil etishidan dalolat beradi.

Umumlashtirilgan bo'lsak, loyihadan o'rin olgan tuman va shaharlar aholisi 2040-yilga kelib, 2 million 415 ming 804 kishini tashkil qiladi. Ichimlik suv iste'moli hajmi esa o'rtaacha 14.08016 kub/metr sekundga ortadi.

Bu esa, amalga oshirayotgan loyihaning Surxondaryo viloyati aholisining ichimlik suvga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Uning yakunida 11 mingdan ortiq xonadonda yashovchi 44 mingdan ziyod aholini ilk marta ichimlik suv bilan ta'minlash imkoniyati yuzaga keladi. 18 ming 805 xonadonda yashayotgan 75 mingdan ziyod kishining bu boradagi ta'minoti tubdan yaxshilanadi. Natijada viloyat aholisini markazlashgan toza ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasi 70 foizdan oshadi. Qolaversa, 945 ta xonadon yoki 4 mingga yaqin aholining oqovga suv quvuri tizimiga ulanishiga imkon yaratiladi.

Ayni paytda qadar 147 kilometr uzunlikda quvur tortib bo'lindi. Suv tozalash, bosimni kamaytirish va 5 ta suv yig'ish inshooti barpo etildi.

Kuni kecha Sarosiy tuman "Bog'iston" mahallasida ushbu loyihaning birinchi bosqichini ishga tushirish marosimi bo'ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ramziy tugmani bosdi. Ichimlik suvning Sarosiy, Denov, Sho'rchi va Qumqo'rg'on tumanlariga yetib borishiga yo'l ochildi. Loyihaning navbatdagi bosqichida markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasi 90 foizga yetadi. Bu boradagi xayriy ishlar 2024-yilda nihoyasiga yetkazilishi rejalashtirilgan.



Bundan tashqari, daryoning yuqori qismida istiqbolli loyihalar asosida 2026-2030-yillar davomida umumiy quvvati 264 MVt, o'rtaacha yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati 1071 million/kVt-soatga teng bo'lgan 20 ta GES kaskadini bosqichma-bosqich qurish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 9-sentabrda "Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan, Surxondaryo viloyatida 2023-2026-yillarda umumiy quvvati 5,3 MVt, o'rtaacha yillik ishlab chiqarish quvvati 19,2 million/kVt-soatga teng bo'lgan jami 18 ta mikro GES loyihasini amalga oshirish belgilangan.

lanib kelayotgan suv sarifidan qayta-qayta umumli foydalangan holda ekologik toza energiya hosil qilinadi.

Soha mutaxassislarining xulosasiga ko'ra, "To'palang" suv omboridagi suv manbasi ekologik toza, ichishga yaroli hamda tarkibiy jihatdan inson organizmi uchun qator foydali mineral xossalarga boy ekan. Undagi suvning qattiqlik darajasi 4 foizni tashkil etishi ham inson sog'lig'iga foydali hisoblanadi. GESlar agregatini aylantirgan suvlar ham tabiiy jihatdan tozaligini yo'qotmaydi.

Bu xususiyatlar, o'z navbatida, Surxondaryo viloyati aholisi uchun muhim bo'lgan yana bir o'ta yirik jittimoiy loyihani tatbiq etish imkonini beryapti. Binobarin, vohada foydalaniladigan suv resurslarining umumiy hajmi yiliga 4 trillion 270 milliard kub metrni tashkil qiladi. Bunda

suv avval asosiy inshootga quyiladi, keyin esa magistrall quvurga uzatiladi. Ya'ni suv omboridan tumanlardagi suv taqsimlash tarmoqlariga jami 361 kilometr uzunlikdagi quvur tortiladi. Buning natijasida Sarosiy, Denov, Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Jorqo'rg'on, Bandixon, Qiziriq, Sherobod, Angor, Muzrabot, Termiz tumanlari va Termiz shahridagi jami 2 millionga yaqin aholining suv ta'minoti yaxshilanadi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — aholini sifatli ichimlik suv bilan ta'minlash, kommunal turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, tuman markazlari va qishloqlar aholisi salomatligini mustahkamlashdan iborat. Uni o'z vaqtida va sifatli bajarishda bosh loyihachi "Gidroproyekt" AJ bilan Turkiyaning yetakchi "ART Environmental Technologies LTD" kompaniyasi o'zaro hamkorlik qilmogda.

KONSTITUTSIYA VA TA'LIM



Ixtiyor BEKOV, yuridik fanlar doktori, professor

Shu bois, davlatimiz rahbari ta'lim sohasiga, xususan, ustoz-murabbiylarning obro-e'tibori va maqomini ko'tarish, ularni har tamonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratib kelmogda.

Darhaqiqat, Uchinchi Renessans to'rt uzviy xalqa, ya'ni bog'cha, maktab, oliy ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi yangi O'zbekistonning ta'lim modeli sifatida qaralmogda.

Umuman olganda, ta'lim har bir davlat uchun nafaqat axloqiy yoki mafkuraviy jihatdan, balki birinchi navbatda, iqtisodiy nuqtayi nazardan muhim ahamiyatga ega. Xususan, har bir davlatning uzoq yillarga mo'ljallangan strategik maqsadlariga erishish, ichki mehnat bozorining xususiyatlaridan kelib chiqib kadrlar siyosatini yuritish hamda biliml yoshlarning mamlakatdan chiqib ketishining oldini olishga qaratilgan intellektual xavfsizlikni

ISLOHOTLARNING MUHIM GENERATORI

Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida "Fikrning quvvati, ziyonati, kengligi muallim tarbiyaga bog'liqdir" deydi. Darhaqiqat, ta'lim taraqqiyotning tamol toshi, davlatni davlat, millatni millat qiladigan hamda inson kapitalini shakllantiradigan asosiy omildir. Xalqona aytusak, sifatli ta'limni ta'minlash bilangina boshqa barcha sohalarni rivojlantirish mumkin.

ta'minlash maqsadida ta'lim sifatini ham yangi bosqichga chiqarishni Avloniy ta'bir bilan aytganda, hayot-mamot masalasi, deb baholajak mubolag'a bo'lmaydi.

2023-yil 30-aprelda referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham fuqarolarning ta'lim olish huquqini e'tirof etuvchi muhim norma va qoidalar ta'lim tizimini davr va xalq talabi asosida yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan. Xususan, Konstitutsiyamizning 50-moddasida davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil tur va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi, degan normaning belgilanishi davlatning bu sohadagi katta majburiyatlaridan biri sifatida aks etdi, deb aytilish mumkin.

Davlatimiz rahbari "ta'lim va tarbiyada tanaffus bo'lmaydi", deb ta'kidlaganidek, ta'limning har bir bosqichida yetarli qamrov darajasini ta'minlash, ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, uni davom ettirishga shart-sharoit yaratish aniq ishlar amalga oshirilishini talab etadi. Mamlakatimiz aholisining 60 foizi yoshlar ekanini inobatga olsak, bu borada bizda ulkan salohiyat borligiga amin bo'lamiz. Shuningdek, Prezidentimizning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasidagi uzluksiz ta'lim,

ilm-fan sohalariga oid 37-51-maqsadlari ham muhim dasturiy asos bo'ldi. Bugungi kunga qadar davlatning ushbu majburiyatlarini hamda Taraqqiyot strategiyasidagi rivojlanish maqsadlariga muvofiq bir qator muhim amaliy ishlar, tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilganini aytish lozim.

Alohida qayd etish kerakki, 5 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha 100 ta muhim maqsadni o'z ichiga qamrab olgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham, birinchi navbatda, Yangi O'zbekistonning



tamol toshi hisoblangan ta'limni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim muassasalarini yanada rivojlantirish, ayniqsa, barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqsad-vazifalar hamda ularning amaldagi ijrosini ta'minlash bo'yicha aniq maralar belgilandi. Pirovard maqsad har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish hisoblanadi.

Aniq raqamlarga tayanadigan bo'lsak, olib borilayotgan ishlohotlar samarasi o'laroq, keyingi 7 yilda bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovi 27 foizdan 72 foizga yetdi. Mazkur sa'y-harakatlar "O'zbekiston — 2030" strategiyasining tegishli maqsad va ko'rsatkichlarida ham aks

etgan. Unga muvofiq, maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda qamrov darajasini kengaytirish ko'zda tutilgan.

Uzluksiz ta'limning maktabgacha ta'limdan boshlanib, oliy ta'lim va undan keyingi ta'lim, ilm-fan bilan butun hayot davomida (Lifelong Learning) olib borilishidan kelib chiqadigan bo'lsak, ishlohotlarning aynan maktabgacha ta'lim tizimidan boshlangani har jihatdan to'g'ri.

Inson kapitalini rivojlantirish garovi

Ishlohotlar samarasi o'laroq, maktablarimizda ta'lim sifati, o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, bolalarni maktabga qamrov darajasi ortdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatlaridagi maktab o'quvchilari uchun bepul oqvatlanish tizimi bosqichma-bosqich qolgan viloyatlarda ham tashkil etilmogda.

Alohida qayd etish kerakki, ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar, xususan, Finlyandiya tajribasi asosida, xorijiy mutaxassislar ishtirokidagi 4K modeli (kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativlik, kritiklik (tanqidiy tahlil)) ga asoslangan yangi avlod darsliklari yaratildi. Ushbu ishlohotlar Uchinchi Renessans ikkinchi halqasining mustahkam paydevori bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, uzluksiz ta'limning yana bir muhim bosqichi — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi yoshlarning kasb-korga ega bo'lishida, o'zlarining noyob qirralari yuzaga chiqishida muhim rol o'ynamogda. Boshlang'ich (kasb-hunar maktablari), o'rta (kollejlarni) hamda o'rta maxsus (texnikumlar) bosqichlardan

iborat bo'lgan professional ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa maktab ta'limi va oliy ta'lim o'rtaidagi ko'priklar bo'lib bilan barcha shaxslarning hayotda o'z yo'lini topishiga xizmat qiladi.

Uzluksiz ta'limni oliy ta'limsiz tasavvur qilish qiyin. Haqiqatan, qilingan ishlar uzoqni o'ylagan holda aniq maqsadga yo'naltirilgan bilan e'tiborga loyiq. Taraqqiyot strategiyamizda belgilangan ishlarimiz aks qismini amalga oshirishga erishilgan ham quvonarli holat. Xususan, oliy ta'lim bilan qamrov darajasi o'tgan yillarga qaraganda, sezilarli darajada ortib, 42 foizga yetdi.

Binobarin, oliy ta'lim bilan qamrov darajasi ortishiga davlatning nafaqat davlat ta'lim muassasalariga, shuningdek, nodavlat ta'lim muassasalarining faoliyatiga ham ko'maklashuvi orqali erishildi, deb aytilish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aks etgan davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlash to'g'risidagi norma mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatga mosligi, davlat kelajigi bo'lgan yoshlarning ta'lim va tarbiya olishida, kasb-korga ega bo'lishida, jamiyatda o'z o'rnini topishida g'oyat muhim norma sifatida belgilangan bilan alohida e'tirofga munosibdir. Davlatimiz tomonidan mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlohotlar "inson qadri" tamoyili asosida olib borilayotgan esa navqiron avlodning zamonaviy talablar asosida bilim olib, hayotga dadil qadamlar bilan kirib kelishida va ertangi kunimizning tayanchiga aylanishida muhim omil bo'ladi.

TAHLIL VA TAQQOS

SHAFFOF, ISHONCHLI VA ZAMONAVIY XIZMAT

— 2023-yil 9 oyi yakunlariga ko'ra, Respublika tovar-xomashyo birjasining barcha savdo platformalarida tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan 4 foizga o'sib, 103,3 trillion so'mni tashkil qildi, — deydi "O'zRTXB" AJ boshqaruv raiisi o'rinbosari Zulfidin Kamolov. — Tuzilgan bitimlarning qariyb 70 foizi birja savdolariga, qolgan 30 foizi elektron tijorat savdo tizimlariga to'g'ri kelgan.

qanday yangiliklarni taklif etadi?

yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida qaroriga muvofiq, o'tgan yil 1-iyuldan bug'doyning O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasida ochiq savdolar orqali sotilishi belgilanganidan keyin ular mohiyatini nainki bilish, balki erkin bozorning mazkur vosita va kasblaridan foydalangan holda, ishlay olish zarur ehtiyojga aylandi.

Xususan, broker mijoz hamda birja o'rtasida vositachi sifatida faoliyat yuritadi, xaridor nomidan bitimlarni amalga oshiradi. Butun dunyodagi tovar, aksiya, valiuta borki, hammasining narxi ular taklifi bilan shakllanadi, oldi-sotdisi ham shular orqali amalga oshiriladi.

Xabardor bo'lish yaxshi, lekin uni kundalik faoliyatda amalda qo'llashning o'ziga xos talablari bor, — deydi "O'zRTXB" AJ matbuot xizmati rahbari Hikmatullo Tillaboyev. — Shuning uchun tumanlarda bug'doyning birja orqali samarali sotilishini yo'lga qo'yish maqsadida o'tgan yili 10 mingdan ziyod fermerlar o'qitildi hamda birjada ro'yxatdan o'tkazilib, brokerlarga birlashtirildi.

Bug'doy bo'yicha birja savdolari har bir tumanda joylashgan savdo maydonchalari orqali amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ushbu jarayonga 200 dan ziyod shunday maydoncha va 3 mingdan ziyod treyderlar jalb etilgan.

Bir so'z bilan aytganda, g'alla mahsulotlarining ochiq birja savdolari orqali sotilishi uchun Respublika tovar-xomashyo birjasida barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-iyundagi qaroriga muvofiq, joriy yil 3-iyuldan boshlab 2023-yil bug'doy hosilidan vaqtinchalik saqlashga topshirilgan 3-sinf bug'doy ochiq birja savdolari orqali sotilishi yo'lga qo'yildi. Nima uchun 3-sinf bug'doy asosiy mezon sifatida tanlangan?

Mutaxassislarning fikricha, fermer xo'jaligi bilan don qabul qilish korxonasi o'rtasida tuzilgan kontraktatsiya shartnomasi asosan, topshirilayotgan bug'doy doni davlat anдозasida ko'rsatilgan cheklangan me'yorga asosan, namligi 17 foizdan, ifloslik aralashmasi 5 foizdan, don aralashmasi 15 foizdan yuqori, natura og'irligi 710 g/l dan past bo'lmasligi belgilangan. Bu 3-sinf va undan yuqori darajadagi bug'doy ana shu talabga javob beradi, degani.



Endi keyingi paytda savdoda o'z ifodasini topayotgan raqamlarga e'tibor qaratsak. Sentyabr va oktyabr oylarida kuzatilgan lokal ko'rinishdagi tebranihlariga qarab, birjaning bug'doy va un bozorlarida ham barqarorlik saqlanmoqda. Misol uchun, 19-sentyabrdan 31-oktyabrgacha bo'lgan davrda bug'doyning birjada shakllangan o'rta narxi mahsulotning bir tonnasiga uchun 3 million 1 ming so'mdan 2 million 846 ming 900 so'mgacha, unning narxi esa 4 million 522 ming 100 so'mdan 4 million 19 ming 500 so'mgacha pasaydi.

O'tkazilayotgan birja savdolari davomida bug'doy va un uchun birja narxlar talab va taklif asosida shakllanib, tuzilgan bitimlar doirasidagi barcha to'lovlarining amalga oshirilishi birjaning hisob-kitob kliring palatasi orqali kafolatlangan.

Bug'doyning bozor mexanizmlari asosida sotilishi hisobiga mahalliy klaster, fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan qo'shimcha 21 milliard so'mlik daromad olindi.

Yangilik va o'zgarishlar

2023-yilning uch choragi davomida birjaning davlat xaridari bo'yicha xarid.uz.uz elektron savdo tizimida tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan 23 foiz oshgan va 30,4 trillion so'mga yetgan. Bunda byudjet va korporativ buyurtmachilar mablag'larining tejallishi 35,4 foiz o'sib, 5,2 trillion so'mga teng bo'ldi.

— Birjaning etender.uz.uz savdo tizimida davlat xaridlari subyektlari o'rtasida

da affilanganlik va manfaatlar to'qnashuvi holatlarini elektron shaklda aniqlash tartibi joriy etildi, — deydi "O'zRTXB" AJ boshqaruv raiisi Mansurjon To'ychiyev. — Shuningdek, byudjet buyurtmachilari to'g'rida ham barqarorlik shartnomalar bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlar to'g'risida ma'lumotlardan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Ayni paytda Respublika tovar-xomashyo birjasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan



hamkorlikda davlat xaridlari ishtirokchilarning reytingini ishlab chiqmoqda. Mazkur yangi xizmat turining joriy etilishi davlat xaridlari bo'yicha buyurtmachilarga sifatsiz tovarlarni yetkazib berish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga ham xizmat qiladi.

Birjaning avtoraxamlari sotish bo'yicha elektron savdo tizimida ham yangiliklar joriy etilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga muvofiq, 2023-yil 1-iyuldan boshlab Respublika tovar-xomashyo birjasining avtoraxam.uz.uz

elektron savdo tizimi orqali sotiladigan avtoraxamlarning boshlang'ich narxlariga o'zgartirishlar kiritildi.

Bundan tashqari, onlayn-auksionda xarid qilingan avtoraxamlarni rasmiylashtirish muddati 10 kundan 30 kungacha uzaytirildi. Unda sotilmasdan qolgan avtoraxamlar keyingi 5 kun davomida birjaning elektron savdo tizimiga avtomatik tarzda takroran qo'yiladi.

Bir tonnasi 304 million 750 ming so'm

O'tgan asrning oltin yillariga qadar dunyo qit'alari ichidagi suv havzalari orasida Orol dengizi kattaligi jihatidan to'rtinchi o'rinni egallagan. Shundan keyin quyiladigan manba tobora kamayishi tufayli maydoni 8, suv hajmi 13 barobar qisqardi, 90-yillarga kelib, kichik va katta Orolga bo'lindi. Olim va mutaxassislarning fikricha, hozirgi kunda suvning mineralanish darajasi litrga 150 grammdan ham ortib ketgan. Orol endilikda jahonning eng yirik sho'r suv havzasi sanaladi.

Bir paytlar bu yerda baliqning 60 dan ziyod turi uchragani, ularning 40 dan ortiq turi ovlangan tarixiy voqeikka aylangan bo'lsa, endilikda ularning suvida faqat bitta jonot — artemiya yashayapti. U mutatsiyaga uchrashib, 100 million yillardan buyon o'zgarishsiz yashab kelayotgan oddiy organizm hisoblanadi. Uning tuxumi — sistasi ikki yuz daraja sovuqda ham, o'n ming yillab zaharli moddalar bilan to'yinagan joyda qolib ketgan taqdirda ham yashashga imkon tug'ilishi bilan xuddi hech narsani ko'rmasdan jonlanib ketaveradi.

Dunyo tajribasida artemiya sistemasi asosida olingan mahsulotlar 5 ta sohada, ya'ni akvamaraniyot sanoati, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, tibbiyot va kosmetologiyada keng qo'llaniladi. Jumladan, u endokrin va qon tomiri tizimi kasalliklarining oldini olish, ozqinlashda biologik faol qo'shimcha sifatida, shuningdek, nuklein kislotasi, yod manbasini, kanserogen kasalliklarni davolashda saratonga qarshi dori sifatida foydalaniladi.

2023-yil 17-oktabrdan Respublika tovar-xomashyo birjasining savdolarida mazkur noyob — artemiya sistasi qo'yiladi boshlandi. Uning sotuvchisi sifatida "Aral Artemiya Sanaat" MCHJ ishtirok etmoqda.

Hozirgi paytda artemiya sistasini ichki birja savdolari uchun shartnoma ochilgan. Unga muvofiq, mahsulot bir tonnasining boshlang'ich narxi 103 million 250 ming so'mni tashkil qiladi. Tovarni yetkazib berish sharti — EXW, ya'ni sotuvchining omboridan olib ketish hisoblanadi.

Dastlabki kunda birja savdolari orqali 20 tonna artemiya sistasi deyarli 6,1 milliard so'mga sotildi. Shu bilan birga, yangi mahsulotning birja kotirovkasi bir tonna uchun 304 million 750 ming so'mga teng bo'ldi.

Xalqaro mezonlar asosida

— Investitsiya institutlari milliy uyushmasi (NAII) tomonidan 2022-yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan "O'zbekiston kapital bozorida eng yaxshi" tanlovi yakunlariga ko'ra, birjamiz "Eng yaxshi korporativ boshqaruv" nominatsiyasida g'olib bo'lgan edi, — deydi Z.Kamolov. — Samarali korporativ boshqaruv jamiyatning menejerlari va aksiyadorlari o'rtasidagi muvazozlikni ta'minlaydi, biznes jarayonini optimallashtiradi, faoliyati shaffofligini oshiradi hamda kompaniyaning barqaror va izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yana bir e'tibori tomoni, joriy yilda Respublika tovar-xomashyo birjasi ISO 9001:2015 "Sifat menejment tizimi" xalqaro standart bo'yicha resertifikatsiyadan o'tdi hamda ISO 37001:2016 "Korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi" xalqaro sertifikat talablariga muvofiq tasdiqlandi.

Mazkur sertifikatlar ko'rsatilayotgan birja xizmatlarining yuqori sifat darajasi va kompaniyada jahon standartlariga javob beradigan korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi amalda mavjudligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, "O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi" AJ o'z ta'rifida ilk bor xalqaro reytingga ega bo'ldi, — deydi H.Tillaboyev. — "Fitch Ratings" xalqaro reyting agentligining hisobotiga ko'ra, birjamizning xalqaro reyting bahosi "B" (barqaror kutilma) darajada tasdiqlangan.

Ushbu xalqaro reyting jamiyatning ochiq biznes strategiyasi, shaffof moliyaviy hisoboti va rivojlangan korporativ boshqaruv joriy etilganini tasdiqlaydi hamda mahalliy mijozlar va xalqaro investorlarning birja faoliyatiga nisbatan ishonchini oshiradi.

Shu bilan birga, birjaning moliyaviy hisoboti bo'yicha audit tekshiruvini o'tkazish maqsadida Big Four, ya'ni "Katta to'rtlik" kiruvchi — "ERNST & YOUNG" xalqaro auditorlik tashkiloti jalb etildi. Xorijiy ekspertlar va konsalting kompaniyalar ishtirokida ishlab chiqilgan rivojlantirish strategiyasida birjaning IT-infratuzilmasi va savdo platformalarini modernizatsiya qilish, ko'rsatilayotgan xizmatlar turini kengaytirish, tashqi savdo hajmini oshirish hamda yangi savdo vositalarini joriy etish vazifalari belgilangan. Ular izchil va o'z vaqtida joriy etib kelinayapti.

Rauf NUR, iqtisodiy sharhlovchi



INSON QADRI

Yo'l va ko'priklar qurish azaldan xayrli va savobli amallar sifatida baholangan. Bu ishga bosh bo'lganlarda elda izzat-hurmat ko'rsatilgan. Zero, yo'lovchining ko'zlangan manziliga yetib borishida bu infratuzilma tarmoqlarining o'rni katta ahamiyatga ega.

NOSOZ VA TA'MIRTALAB YO'LLAR QOLMAYDI

Keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan yaqin va olis hududlarda yo'l va yo'laklar qurish, ta'mirlash, aholi kundalik hayot tarzi uchun zarur sharoitlar yaratib berishga e'tibor oshdi. Endilikda ko'plab tor va notekis yo'llar keng va ravon ko'chalarga aylandi. Yo'l bo'ylariga hamonahang qurilayotgan savdo va xizmat ko'rsatish inshootlari hududlar me'moriy qiyo-fasini o'zgartirish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, yangi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatini beraypti.

"Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va foydalanishga topshirish, aholi va transport harakati ishtirokchilari uchun qulayliklar yaratish, yo'l-transport hodisalarini bog'liq ko'ngilsizliklarning oldini olishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Farg'ona viloyatida 15 ming 919 kilometr ichki yo'llar mavjud. Keyingi ikki yilda barcha dasturlar asosida jami 2915,8 kilometr uzunlikda ichki xo'jalik yo'llari ta'mirlandi. Birgina "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari ijrosi doirasida viloyatdagi 261 ta mahalla fuqarolar yig'ini hududida 85 kilometr yo'lga sement-beton, 218 kilometr ga asfalt va 228 kilometr ga shag'al yotqizildi. Bu ishlar uchun Respublika byudjeti hisobidan 167,6 milliard so'm miqdorida mablag' sarflandi.

— Viloyat ichki yo'llarini ta'mirlash dasturiga muvofiq, 701,6 kilometr uzunlikdagi ichki yo'llarda ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan, — deydi "Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi rahbari Oybek Nazirov. — Bundan tashqari, yo'l qurish va ta'mir-



lash bilan bog'liq ish hajmini oshirish va sifatini yaxshilashda tashabbuskor fuqarolar tomonidan taklif etilayotgan loyihalarni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan e'tibor oshdi. O'tgan yilning o'zida "Tashabbusli budjet"ning ikkinchi bosqich dasturi asosida viloyatimiz tuman va shaharlari hududidagi 224,2 kilometr yo'l asfaltlash uchun 83,2 milliard so'm miqdorida mablag' yo'naltirildi. Joriy yilning shu kuniga qadar esa, barcha yo'nalishlar bo'yicha 1865,4 kilometr yo'llarda ta'mirlash ishlari to'liq yakunlandi.

Ichki yo'llar aholining turmush sharoitini yaxshilashda eng muhim va zarur manba hisoblanadi. Viloyatda ta'mirtalab ichki xo'jalik yo'llarini 2026-yilga qadar belgilangan dasturlar asosida bosqichma-bosqich ta'mirlash borasida "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. Bu yaqin 3-4 yil ichida Farg'onada

nosoz va ta'mirtalab yo'llar qolmasligidan dalolat beradi.

Ichki yo'llarni qurish, ta'mirlash bilan bog'liq ishlarda klaster tizimi joriy etildi. Natijada yo'l qurilishi sohasida uchragan turgan ko'plab muammolar bilan bog'liq holatlar barham topmoqda. Yangi tizim har qanday sharoitda arzon va sifatli qurilishni ta'minlaydi.

"Qo'qon yo'lta'mir" MCHJ bu borada yangi loyiha tashabbuskori bo'ldi. Avval-lari xomashyo yetkazib beruvchi aksariyat korxonalar yo'l qurilishi tarmoqlaridan alohida ish olib borgan. Kerakli texnikalardan ham ijara asosida foydalanilgan. Bu yo'l qurilishi sifati va ta'mirlash jarayoni cho'zilib, xarajatlar miqdori sababsiz ortib ketishiga olib kelgan.

— Ishlab chiqarishga klaster tizimining joriy etilgani faoliyatimiz ko'lamini kengaytirib, ish sifatini yaxshiladi, yo'l qurilishida muqobil raqobatni shakllantirdi. Endilikda miqdor emas, yo'l sifati muhim bosqichga chiqdi, — deydi korxonalar rahbari Akmaljon Qurbonov. — Bugungi kunda 60 ga yaqin texnika parkini yaratdik, kunlik quvvati 800 tonna asfalt tayyorlash hamda 300 tonna toza maydalash tarmoqlari ishga tushirish imkoniyati 80 dan ortiq yangi ish o'rni yaratildi. Joriy yilning o'zida 80 kilometrdan ortiq ichki yo'llarni ta'mirlash, asfaltlash bilan bog'liq ishlarni bajardiki. Bu avvalgi yillarda taqqoslaganda o'n hissa ko'pdir. Shuningdek, mahalliy xomashyo, "Azikrit" rudasini qayta ishlab, bitum va tosh bo'laklarini bir-biri bilan bog'lovchi mineral qorishmalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Bu qo'shimchalar mahsulot sifatini yaxshilash, yaroqlik muddatini uzaytirish imkoniyatini beradi. Istiqbolli rejalar dasturiga ko'ra, bitumli emulsiya ishlab chiqarish borasida ish olib boryapimiz. Bu loyiha yo'llarni asfaltlashga tayyorlash jarayonidagi ish sifatini tubdan yaxshilaydi. Ya'ni tayyor asfalt qorishmalarini yo'lining boshlang'ich qatlami bilan mustahkamlashda har jihatdan qo'l keladi.

"Uvaysiy" mahalla fuqarolar yig'ini Dang'ara tumanidagi infratuzilma tarmoqlariga og'ir hududlar sirasiga kirgan. Qishda loy, yozda chang, o'nqir-cho'nqir ko'chalar bugun ravonlashdi. Ayni kunda ko'hna maskanda "Qo'qon yo'lta'mir" MCHJ yo'lsozlar 1532 metr ichki yo'llarga asfalt yotqizmoqda.

— Mahallamizdagi 1025 ta xo'jalikda 3 mingdan ortiq aholi yashaydi, — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raiisi Hakimaxon Hayitova. — Hududimizdagi ichki yo'llar asfalt-



Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

HAMKORLIK

O'QISH VA AMALIYOTDA XORIJ TAJRIBASI



Madamin MADAZIMOV, tibbiyot fanlari doktori, professor

Ta'lim samaradorligini oshirish borasidagi farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini yuksaltirish, yangi loyiha va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator xalqaro forumlar o'tkazildi. Xususan, O'zbekiston — Hindiston tibbiyot forumida institut hamda Dr.D.Y.Patil universiteti o'tasida anglashuv memorandumini imzolandi. Unga ko'ra, ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasida xalq tabobati yo'nalishida qo'shma ta'lim dasturini yo'lga qo'yish, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, talabalar akademik mobillik dasturini tashkil etish, transplantologiya sohasini rivojlantirish kabi masalalarda hamkorlik qilinadi.

O'zbekiston — Germaniya birinchi tibbiyot forumida Germaniya hamkorlik tashkiloti (GIZ) bilan uroonkologiya yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar malakasini oshirish, birgalikda jarrohlik amaliyotini o'tkazish bilan bog'liq dolzarb masalalar ko'zda tutilgan memorandum imzolandi. Iltiqobli hamkorlik loyihalari dasturidan o'rin olgan O'zbekiston — Rossiya xalqaro sog'liqni saqlash forumi ham kelishuvlarga boy bo'ldi. Forum doirasida Rossiya Sog'liqni saqlash vazirligining A.Vishnevskiy nomidagi Milliy tibbiy tadqiqot markazi bilan hamkorlik memorandumini imzolandi. Endi Rossiyaning

Mamlakatimizda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlar ko'lami kundan-kunga kengaymoqda. Yurtimizdagi nufuzli oliygo'harlardan biri sifatida Andijon davlat tibbiyot instituti ham hayotbaxsh islohotlarda faol ishtirok etyapti.

"ROSOMED" va "SINTOMED" kompaniyalari bilan tibbiyotda simulyatsion ta'limni tashkil etish, simulyatsiya o'quv markazi faoliyatini yuritish, ushbu o'qitish usulida mutaxassislar tayyorlash bo'yicha manfaatli kelishuvga erishildi. Ural davlat tibbiyot universiteti bilan imzolangan hujjatda, asosan, talabalar o'rtasida akademik mobillik dasturlari tashkil etish, professor-o'qituvchilarni malaka oshirish kurslariga jalb qilish, o'zaro qo'shma ilmiy loyihalar ustida ishlashga e'tibor qaratildi. V.Almazova nomidagi Rossiya milliy tibbiy tadqiqotlar markazi bilan institutlararo va kafedralararo hamkorlik yo'lga qo'yildi. Qozon federal universiteti bilan institutimizga universitetning professor-o'qituvchilarini doimiy ravishda dars jarayonlariga taklif etish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Turkiy davlatlar tashkilotining sog'liqni saqlash vazirlari yig'ilishi va Turkiy dunyo

tibbiyot kongressida Turkiyaning Sag'liq bilimlari universiteti bilan institutimiz o'rtasida qator yo'nalishlar bo'yicha hamkorlik memorandumini imzolandi. O'zbekiston — AQSH sog'liqni saqlash haftaligi doirasida Case Western universiteti, University Hospitals bilan yurak-torakal jarrohlik sohasida hamkorlikka erishildi. Shuningdek, AQSHning Ogayo shtatida joylashgan DELR psixiatriya klinikasi bilan psixiatrik kasalliklarni davolashda yangi va zamonaviy usullarni keng joriy etish, mahalliy mutaxassislar klinikada malaka oshirishini yo'lga qo'yish, yangicha "shok terapiyasi" yordamida ruhiy kasalliklarni davolashni o'zbekistonda tatbiq qilish bo'yicha amaliy ishlar bajarilmoqda.

O'zbek-Amerika tibbiyot uyushmasi bilan hamkorlikda tibbiyot sohasidagi yangiliklarni mamlakatimizda amaliyotga joriy etish, Andijon davlat tibbiyot institutining yangi



zamonaviy klinikasi uchun kadrlar tayyorlashda AQSH tajribasini tatbiq etishga ko'maklashish masalalari ko'zda tutilgan. Har yili ikki mamlakat tibbiyot sohasi vakillari o'rtasida ilmiy va akademik hamkorlik o'rnatish bo'yicha kelishuvga erishildi. Forum doirasida B2B formatda uchrashuvlar o'tkazildi. Unda AQSHning Pitsburg universiteti bilan tibbiy biostatistika, genetica va genomika, inson genomini o'rganish va kelib chiqishi mumkin bo'lgan kasalliklarni genetik tahlil qilish masalalarida hamkorlik yo'lga qo'yildi. Koreya transport universiteti bilan hamkorlikda bakalavriat uchun paratibbiyot yo'nalishi va Germaniyaning Rostok universiteti bilan magistratura bo'yicha qo'shma ta'lim dasturini yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida aholi salomatligini mustahkamlash bilan bog'liq qator vazifalar belgilangan. Ulardan biri aholi o'rtasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishdir. Andijon davlat tibbiyot institutining malakali xodimlari bu ishlarda har jihatdan faol bo'lmoqda. Ular maktab, maktabgacha ta'lim muassasalari, tashkilotlar, mahallalarda bo'lib, aholi o'rtasida kundalik ovqatlanish tartibi, tabiiy hamda foydalil mahsulotlarni iste'mol

Ayni paytda institutda 51 nafar fan doktori, professor, 216 fan nomzodi, dotsent faoliyat yuritmoqda. Joriy yilning shu kuniga qadar 39 nafar tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori hamda 6 nafar tibbiyot fanlari doktori yetishib chiqdi.

Institutga xorijlik mutaxassislarini jalb etgan holda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tilishi an'anaga aylangan. Ayni kunda Rossiya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Hindiston, Misr, Ukraina, Belarus, Ozarbayjon dan kelgan 25 mutaxassis talabalariga mashg'ulot o'tmoqda. Bugunga qadar 49 nafar professor-o'qituvchimiz xorijda malaka oshirib qaytdi, yana 14 nafar tibbiyot tizimi rivojlangan Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya, Latviya, Kanada, Germaniyada malaka oshirmoqda.

Talabalar erishgan yutuqlarni ham e'tirof etish o'rinli. Qirg'izistonning Bishkek shahrida o'tkazilgan xalqaro talabalar olimpiadasida institut talabalari 1-o'rnini egalladi. Ilg'or tadqiqotlar ilmiy markazi tashabbusi bilan mamlakatimiz va qator xorijiy davlatlar yetakchi mutaxassislari, ilmiy izlanuvchilar, magistr va talabalar ishtirokida onlayn o'tkazilgan xalqaro ilmiy forumda pediatriya fakulteti talabalari Iqboljon Hakimjonov hamda Bobomurod Abdusalomov, stomatologiya fakulteti talabasi Ziyodbek Rayimov ishtirok etib, "Ilm-fan iftixori" ko'krak nishoni, maxsus guvohnoma hamda xalqaro sertifikat bilan taqdirlandi. Bunday yutuqlar nafaqat tibbiyot, balki sport sohasida ham yo'lga kiritilayotadi. Jumladan, Xitoyning Hangjou shahrida bo'lib o'tgan Paraoziyo yo'nalishi suzish bahsida davolash fakulteti talabasi Muzaffar Tursunxo'jayev oltin medalga sazovor bo'ldi.

Talimning har bir odim maqsad tomon yaqinlashiradi. Qadamlar ko'paygani sari marra ham yaqinlashib, natijalar yaqqol ko'rinadi. Shu ma'noda, o'qitish sifatini oshirishdagi intilishlarimiz oldindagi yutuqlarning debochasi deyish mumkin.

MULOHAZA



ILM ISHTIYOQI VA ZAVQI

Manzura XIDIROVA, Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi

Endi ish boshlagan paytlarimda o'quvchilarda ilgga bir oz loqaydlik va beparvolikni ko'rar edim. Ular tezroq maktabni bitirsam-u, biror xorijiy yurtga ketib pul topsam, degan o'yda yurardi. Buni ba'zilar ochiqcha aytgan paytlar ham bo'lgan. Ildandan nimma foyda, bu bilan uy-joy qilib bo'ladimi, mashina olib bo'ladimi, yaxshi yashab bo'ladimi, degan iddaoli, kesatiq gaplarni eshitardim.

Hozir men ta'lim berayotgan maktabda o'quvchilarning ilgga munosabati ilgari o'quvchilarnikidan butunlay farq qiladi. Endigi o'quvchilar dunyoni faqat ilim bilan olish imkonligini anglab yetmoqda. Ular ilim tu-fayli boyish imkonligini, haqiqiy ilim qoshiga mol-dunyoning o'zi kelishini bilayotgandek. Shuning uchun bilim olishga, uni chuquroq o'rganishga kirishgan. Bundan o'zrim ham xursand bo'lgan. Chunki yillar davomida sarflagan vaqtning va mehnating besarmar ket-masa, bundan, albatta, xursand bo'lish kerak. Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tuzimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi farmoniga binoan, Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etilib, o'tgan yil sentyabrdan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Pedagog xodimlar uchun bosqichli sinov asosida saralab olingan. Tumandagi eng bilimli bolalar test sinovi orqali o'qishga qabul qilingan. Ayni paytda 360 o'quvchi tahsil olyapti. Har bir sinfda 24 nafardan o'g'il-qiz o'qiydi. Maktabimiz STEAM fanlarga ixtisoslashgan bo'lib, fizika, matematika, kimyo, biologiya, ingliz tili va O'zbekiston tarixi chuqurlashtirib o'tiladi. Ixtisoslik fanlari uchun pedagoglarga 60, nomutaxassis fanlar uchun esa 40 foiz

ustama to'lanadi. Bugunga kelib, maktabimizda oliy ma'lumotli 34 pedagog faoliyat yuritmoqda. Ularning aksariyati xalqaro va milliy sertifikatlar sohibi. Jumladan, yetti o'qituvchi xalqaro sertifikatga ega bo'lib, 50 foiz ustama oladi.

Maktab tashkil qilinganiga ko'p bo'lmagan esa-da, yutuqlarimiz salmoqli. O'quvchilarni "Zakovat" intellektual o'yinining viloyat bosqichi g'olibligini qo'lga kiritdi. Besh tashabbus doirasida o'tkazilgan shaxmat musobaqasida o'quvchimiz tumanda birinchi, viloyatda uchinchi o'rin sohibi bo'ldi. Asosiy fan olimpiadasida informatika fanidan yana bir o'quvchimiz ikkinchi o'rnini egalladi. Muzrabotdagi ixtisoslashtirilgan maktab jamoasi juda ahlil, ustoz-shogirid an'analari yo'lga qo'yilgan, tajribali muallimlardan tashkil topgan. Tumandagi umumta'lim maktablariga haqiqiy lokomotiv vazifasini bajarib kelmoqda. Bu yil maktabimizni tamomlagan 24 o'quvchidan 19 nafari OTM'larga o'qishga qabul qilindi. Ta'lim muassasamiz o'tgan yili to'liq rekonstruksiya qilingan. Hozir ham qurilish-ta'mirlash davom etmoqda. O'quvchilar uchun barcha sharoit mavjud. Zamonaviy kompyuter, laboratoriya xonalari zarur jihozlar bilan ta'minlangan. Bu imkoniyatlar o'quvchilarning yangidan-yangi marralarni zabt etishida pillapoya vazifasini bajarishiga shubhasiz.

INTILGANGA TOLE YOR

G'AYRAT BO'LSA, PUL TOPILADI

Sardorbek Egamnazarov Jizzax viloyati Yangiobod tumanining Yangiobod shahar fuqarolar yig'iniida yashaydi. Davlatimiz rahbarining 2021-yil 21-apreldagi "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingach, u va uning ukasi Nurbekning hayotiga ham islohotlar epkini kirib keldi. O'sha yilning dekabrda Sardorbek "Qishloqqurilishbank"ning tuman filialidan 55 ming AQSH dollari miqdorida imtiyozli kredit olib, "Imronbek tekstil" korxonasiga asos soldi. Albatta, bu oson bo'lmadi, kredit olish uchun xiyla yelib yugardi. Chel el texnikasini keltirish, tadbirkorlikni boshlab olish uchun ham ancha ter to'kdi. Otasi bilan maslahatlashib, ishning oxiriga yetdi.

G'ofurnazar aka ma'lumoti bo'yicha iqtisodchi. Ko'plab davlat tashkilotlarida faoliyat yuritdi, fermerlik bilan shug'ullandi. Ayni paytda o'g'illari tashkil etgan to'qimachilik korxonasida ish boshqaruvchi bo'lib ishlayapti. — Sardorbek yengil sanoat bo'yicha Toshkentda o'qidi. Germaniya, Turkiyadan kelgan mutaxassislardan o'rgandi. So'ng Jizzax viloyatidagi "Odina tekstil" korxonasida amaliyot o'tadi. Nihoyat, o'zi korxonani ochdi. Korxonamizda turk texnologiyalari asosida erkanlar va ayollar jempere ishlab chiqariladi. Texnikamiz chet eldan keltirilgan, lekin ularni ishlatish uchun alohida mutaxassisga ehtiyojimiz yo'q. Mabodo buzilgudek bo'lsa ham xorijdan usta chaqirib, ta'mirlatishga zarurat sezmaymiz. Chunki o'g'illarim bu uskunalar tilini yaxshi tushunadi, o'zi boshqaradi, — deydi u. — Olgan kreditimiz evaziga Xitoydan o'rta kompyuterlashtirilgan dizayn va to'qish, bitta ip-yigiruv dastgohi keltirdik, 10 ta tikuv mashinasi va qolgan uskunalarni o'z mablag'imizga sotib oldik. Yana Turkiyadan ham ikkita to'qish dastgohi olib keldik.

Hozir korxonada 10 kishi ishlaydi. Ishchilar asosan, kam ta'minlangan oilalar a'zolari bo'lgan xotin-qizlar, yoshlardan iborat. Mahsulotlar xomashyosi Turkiyadan keltiriladi. Sardorbek Egamnazarovning aytishicha, hozircha naqd pul yo'qligi bois, xomashyo qarzga olib kelinyapti. Hamma mablag' asbob-uskunaga sarflangan, qolaversa, qurilish va obodonlashtirish ishlariga ham ketyapti. Korxonada har kuni 100 dona mahsulot ishlab chiqariladi. Buyurtma asosida xaridorlarga tayyorlab berilyapti. Dastgohlarning hammasi kompyuterlashtirilgan, buyurtma berilgan mahsulotlar chizmasi ularda tayyorlanadi. "Kelgusida kompyuterlashtirilgan dizayn va to'qish dastgohidan yana 4 ta keltirish niyatimiz bor. Shunda ishlab chiqarayotgan mahsulotlarimizning shakli va turi yanada ko'payadi, ko'rkamlashadi. Ayni paytda Toshkent shahridan 7 mingga buyurtma olganimiz, hozir shu bilan mashg'ulimiz," deydi yosh tadbirkor.

To'qimachilik fabrikasida ishlayotganimga bir yildan oshdi, — deydi tikuvchi O'g'lioy Xolboyeva. — Ishim o'zimga yoqadi, xalqimiz uchun jempere va boshqa liboslar ishlab chiqaramiz. Ish jarayonida tikish-bichishning o'zimiz bilmagani ko'p jihatini o'rgandik. Bir necha xil tikuv mashinalarida tikishni o'zlashtirdim. Kiyimga yoqa, yeng tikishni bilmasdim, endi bilaman. G'ofurnazar Raimnazarovning aytishicha, ish boshlashdan avval bir muddat joy topmay qinyalgan. Korxonaning hozirgi binosi vayrona holatda edi. Bu yerga kirishdan oldin ta'mirlandi. Hozir shu binoni sotib olish jarayoni ketyapti. "Ko'rib turganingizdek, ofisimiz yo'q, ofis quraypmiz, issiqlik ta'minoti o'tkazaypmiz, xodimlarimiz uchun kiyinish xonasi, oshxonaga qurilishi davom etyapti, — deydi ish boshqaruvchi. — Kelgusida yangi dastgohlar xarid qilib, tikuv mahsulotlari turini ko'paytirish hamda ishshiz hamshaharlarimizni ish bilan ta'minlash niyatimiz bor. Boshlanishiga yana 10 ta ish o'ri yaratishni maqsad qilganimiz".



Quyoshi porlagan Xurshid

Yangiobod tumani Aholi bandligiga ko'maklashish markazida bosh hisobchi bo'lib ishlayotgan Xurshid Muhammadjonovning avvaldan to'qimachilik sanoatiga qiziqishi bor edi. Shu sohaga qo'li urishni o'ylab yurar, ammo bu borada faoliyatini boshlash va ish yuritish uchun yetarli tajribasi yo'qligi bois, jur'at qila olmayotgandi. Oxiri qiziqishi ustun kelib, shu yo'nalishda ish boshlamoqchi bo'ldi. So'rab-surishtirib, Toshkent shahridagi to'qimachilik korxonasida ish o'rganish imkonligini bildi. Tirishqoqlik va qunt bilan shu yo'nalishda bir oy ish o'rgandi, tajriba ortirdi. 2021-yilda tumandagi Saydon mahallasida bo'sh turgan binoni lizing asosida 2 milliard so'mga sotib oldi. O'sha yilning yanvar oyida turkiyalik hamkorlardan buyurtma olib, tikuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi.



Hozir seximizda Xitoydan keltirilgan 100 ta tikuv mashinasi ishlab turibdi, — deydi yosh tadbirkor. — Dastlab ish boshlaganimizda 25 ta yangi ish o'ri bor edi, shu kunlarda 80-85 taga ko'tarildi. Asosan, kam ta'minlangan oilalar a'zolarini ish bilan ta'minlashga harakat qildik. Korxonamizda 100 xildan ortiq mahsulot ishlab chiqariladi. Oyiga 60-70 ming dona mahsulot tayyorlanadi. Har bir xodimimizga reja yuklatilgan, vaqtini ham shunga ko'ra uning o'zi belgilaydi. Bajargan ish hajmiga qarab mashafto to'lanadi. Agar reja muddatidan ilgari asosh bajarilsa, xodim ishini tugatib uyiga ketishi mumkin. Ishchilarga oyligidan tashqari yo'k'ira, ovqat puli beriladi, uzoq yo'ldan qatnovchilarga mashina ajratilgan. Yillik rejamiz 11 millionta mahsulot ishlab chiqarish. Bu yil hisobidan hozirgacha 8 milliondan ortiq kiyim-kechak tayyorlandi. O'tgan yili tojikistondan sherkatimiz bilan 12 ming dollarlik shartnoma tuzib, mahsulot eksport qildik. Asosiy mablag'imiz kreditni ketishini inobatga olib, 2024-yildan yana eksport qila boshlaymiz. Chunki kelgusi yilda hamkorlarimiz huddudida sexlar qurila boshlaydi, biz ularga mahsulot yetkazib beramiz.

Xurshid oilada to'ng'ich farzand, ikki ukasi va ikki singlisi bor. Yig'it ota-onasining yonida turib, ularga ko'maklashadi. Bugun u Toshkent moliya instituti 3-kurs talabasi bo'lishga qaramay, o'qishdan ortib, ikki farzandni tarbiyasi va sevimli ish bilan shug'ullanadi. Xurshid sexni tashkil qilib, eng avval "Yoshlar daftari" va "Ayyolalar daftari"dagi 7 yigit-qizni ish bilan ta'minladi.

Shalola Karimjonova ishsizligi bois, "Yoshlar daftari"da turardi. Ish so'rab murojat qilganida unga shu yerni tavsiya qilindi. Sexga kelib, bilimaganlarini o'rgandi, dugonalari ortirdi.

— Avvaliga tikishni yaxshi bilmasdim, qiziqib o'rgandim. Bichish-tikishni bilib oldim, endi o'zim mustaqil tika olaman. Bu yerda ishlash menga yoqadi. O'zim ishlab pul topayotganimga, ro'zgorimizga foydam tegayotganidan xursandman, — deydi u.

Laylo Rahmonberdiyeva dugonalari tikkan liboslarini dazmolaydi. Unga tikuvchi-likni, mashinada o'tirib olishni ham taklif qilishgan, ammo u dastlab dazmollash bilan shug'ullangani, o'ziga yoqqani sababli shu ishi davom ettiryapti.

— Bu yerda ishlayotganimga 2 yildan oshdi. Tikuv mashinasida ishlashni ham o'rganib oldim. O'ylik maoshimizni vaqtda olamiz. Ilgari ishsiz edim, endi ro'zgorimga daromad kiritayman. Fabrikamizga ko'p yoshlar kelib shogird tushadi, hunar o'rganadi, — deydi Laylo.

Yosh tadbirkorning kelajak uchun tuzgan rejaları ko'p. U Yangiobod tumanida to'qimachilik sohasini yanada rivojlantirish, tadbirkorligini kengaytirish, ish hajmini oshirish, ishsiz yurgan yoshlar, ayollarni ish bilan ta'minlashga bel bog'lagan.

Xolnisa RAHMONQULOVA, jurnalist

TALAB VA TAKLIF

"Buyuk ipak yo'li" turizm brendi

Ellar hamqihatligi ORZUSI

Ikromiddin OSTONAQULOV, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori

IX-XII asrlar Sharq olamida ilm-fan, she'riyat va ma'naviyat yuksak taraqqiyotga erishgan davr sifatida doimo tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu davrda Osiyo mintaqasidan yetishib chiqqan Xorazmiy, Farg'oniy, Buxoriy, Termiziy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va Ismoil Jurjoni, Marg'ironiy, Zamaxshariy, Mahmud Koshg'ariy, Rudakiy, Daqiqiy va Yusuf Xos Hajib kabi allomalar dunyo tamaddunida o'chmas iz qoldirdi.

Bu davrda qadimgi yunon ilmiy-madaniy an'analardan oziq olgan yangi islomiy, falsafiy, aniq va tabiiy ilmlar — astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, dorishunoslik, jug'rofiya kabi fanlar rivoj topdi, mashhur hadisshunoslik va fiqhshunoslik maktablari shakllandi, tarixshunoslikda muhim asarlar yaratildi. She'riyat ifoniy va tasavvufiy bilimlarning o'ziga xos ifodachisi maqomiga ko'tarildi. Barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgan diniy bag'rikenglik va dinlarning totuvlik g'oyalari targ'ib etish mazkur davr uchun

islom dinini yaxshi bilgan, aqida masalada adashmagan, degan fikrlarni ilgari suradi. Ba'zilar bu ruboiylari aslida boshqa kishiga tegishli, degan fikrni o'rtaga tashlaydi. Biz bu masalani manbahunoslarga qoldirgan holda qo'limizdagi manbalar bo'yicha o'z fikrlarimizni bayon etishga harakat qilamiz. Hatto xalq sevadigan ruboiylar xalq og'zaki ijodi mahsul bo'lgan taqdirda ham ularni o'rganishga haqlikim deya olamiz. Bugungi kunda boshqa falsafiy dunyoqarashlar bilan bir qatorda islomiy bilimlar jamiyatda keng tarqalgan sharoitda Xayyom ruboiylari asliyati va tarjimasini yana bir bor o'rganish zarurati mavjud. Ayrim tarjimalar davr mafkurasitabali bilan nisbatan pardador shaklda taqdim etilgan.

Umar Xayyomning bundan yarim asr avval e'lon qilingan bir ruboiysi matni va tarjimasini ko'rib o'taylik. Shoislom Shomuhammedov tarjimasini:

Ka'ba-yu butxona qullik xonasi, Butxona zangi ham shum taronasi. Mehrob-u kaliso tasbih-u salib Barchasi qullikning bir nishonasi.

Vladimir Derjavin tarjimasini: Кааба и кабак — оковы рабства. Азан, и зевн церквонный — зовы рабства. Мухраб, и храм, и четки, кресты — На всем на этом знак суровый рабства.

Ko'rinadiki, har ikki tarjimada ham bir-biriga yaqin tuyg'ular ifodalangan. "Bandagi" so'zi o'zbek tiliga qul, rus tiliga rabstva deb tarjima qilingan. O'zbekcha tarjimada tarona so'zi oldidan "shum" sifati qo'shilgan. Rus tilida qullik so'zi oldiga "суровый" so'zi qo'yilgan. Natijada diniy hodisalarga nisbatan o'quvchiga salbiy kayfiyat hosil bo'lishi uchun imkoniyat yaratilgan. Sho'ro mafkurasitaklari bo'lgan davrda bu ruboiyni ashiyatga



ham juda zarur edi. Ulug' fors shoiri, falsafiy ruboiylar ustasi Umar Xayyom ham mana shu davr yetishtirgan allomadir. Uning ruboiylari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan. Jumladan, o'zbek tiliga ham o'girilib, 1971-yil nashr qilingan. Atroli olim Shoislom Shomuhammedov shoir ruboiylarini o'zbek tiliga o'girish uchun juda katta ijodiy kuch sarflagan. Uning tarjimasidagi ko'plab ruboiylar hofizlar tomonidan kuyla solib jiro etilgan. Turli anjumanlarda she'riyat muxlislari Xayyom ruboiylarini o'zbek va rus tilida o'qishgan. Har bir she'riyat muxlisi kamida 5-6 ruboiysini yoddan biladi. Buning sababi, Umar Xayyom ruboiylari yodlashga qulay, mazmuni hayotidir. Bu ruboiylarda inson va hayot, Tangri taoloning olamni yaratishdagi qudrati, insonning Haq qoshida faqir va g'aribligi, o'tkinchi dunyo uchun ortiqcha g'am yemaslik lozimligi, diniy bag'rikenglik, samimiyylik, vaqtni qadrlash kabi tuyg'ular ufuuri turadi. Bugun Umar Xayyom ruboiylarini talqin etishda ayrim qarama-qarshiliklarga ham duch kelish mumkin. Ba'zilar shoir mayni tarannum etgan, shariat harom degan ichimlikni ko'klarga ko'targan desa, ayrim tadqiqotchilar may deganda ilohiy bilimlar nazarda tutilgan, ularni tushuntirishda majoziy ma'nolar borligini e'tiborga olish lozim, deydi. Ayrimlar esa Umar Xayyom

tobe bir mazmunda berish qiyin bo'lgan, albatta. Xayyom aslyatida "shum" so'zi yo'q. "Bandagi" so'zi Xudoga bandachilik ma'nosida ishlatilganiga qaramay, asl ma'noda berk holda qoldirilgan. V.Derjavin ikkinchi misrada aslyatda yo'q bo'lgan "azan" so'zini qo'llagan. Cherkov qo'ng'irogi bilan azon chaqirish tipologik jihatdan o'xshash hodisa bo'lgani uchun tarjimon shu yo'lni juda to'g'ri tanlagan. Shuningdek, to'rinch misrada buddaviylik ibodatxonasi ma'nosidagi "xram" so'zi ham o'rinda qo'llangan.

O'zbekcha tarjimada Ka'ba so'zi butxonadan avval tilga olingan. Xayyom esa buddizm islomdan avval paydo bo'lganini e'tiborga olib "Butxonau Ka'ba" deb so'z boshlagan. Aslyat 13 hijoli to'rtlikdan tashkil topgan. Xayyomda 19 ta so'z ishlatilgan. O'zbekchada 17 ta, ruschada 18 ta so'z qo'llangan. Hayratlanarli shundaki, 20 taga yetmagan so'zdan tuzilgan to'rtlikda uch jahon dinining mohiyati mo'jaz tarzda ifoda qilingan. Ammo ruboiy janti talabiga ko'ra o'ta siyiq gap tuzilishiga amal qilingani bois, tarjimalar mujmal, ya'ni izohtalab ko'rinish kasb etgan.

Bu ruboiyni bugungi dinlararo muloqot, diniy tolerantlik nuqtayi nazaridan o'qib ko'rsak, aynan Umar Xayyomning ruboiy yo'zshang ko'zlagan asl niyati bo'lgan bo'lar edi. Shuning uchun ruboiyning

mazmunini tarjimasini boshqacharoq berishga ehtiyoj bor, deb o'ylaymiz. Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, Umar Xayyom to'rtligini o'zbek tilida to'rt satrda ifodalash tarjimonga mushkul bo'lgan deb o'ylaymiz. Adabiy majburiylik, ya'ni janr tabiatidan kelib chiqib shakl va mazmun uyg'unligiga erishish doim ham ijodiy natija bera olmaydi. Shuning uchun bugun islom aqidasi tamoyillariga tayanib shoir niyatlarini kengroq shaklda izohli bayon etishga jur'at qilamiz.

Rohib butxonasi, mo'min Ka'basi — Xudoga bandalik izhorxonasi. Cherkov qo'ng'irogi, azonning sasi Tangriga bandalik so'z-taronasi.

Nasroniy sobori, masjid mehrobi, Ham kumush xochi-yu barcha donasi. Rost ayttsak, ularning barcha barchasi Xudoga bandalik bir nishonasi.

Bu erkin tarjima. Niyatimiz Umar Xayyom ruboiylarini janr qolipidan chiqqan holda mazmunni yanada chuqur ochib berish orqali shoirning qadim zamonlardan beri diniy bag'rikenglik uchun xizmat qilib kelayotgan hikmatlarini hozirgi davr o'quvchilarga eslatishdir. Zero, shoir ruboiysi shunchaki dinlarning atributlari haqida ma'lumot berish emas, balki o'zining dinidan boshqa dini tan olmaydigan, o'zga e'tiqod egalardan o'z ustunligini ro'kach qilib, hatto urush-janjal qilishgacha boradigan xudbin kishilarga tanbeh berish uchun ham yozilgan asardir. Bunday holni Muqimiy ijodida ham kuzatish mumkin:

Oshiq ermasman yuzingga yakka Bu Farg'onada, Zohid izar Ka'balarda, Barhaman butxonada.

Ya'ni Ey Parvardigor, sening jamolingga oshiq bo'lgan Farg'onada yakka bir men emasman. Kapa tikib yashaydigan zohidlar ham seni zikr qilib kun o'tkazadi. Ka'ba joylashgan o'lkalarda yashaydigan zohidlar ham senga o'z ishqini bayon etib ibodat qila. Hind elida buddaviy rohiblari — barhamanlar (brahmanlar) ham ibodatgohlarida senga nola qilib, o'z bandachiligini bildiradi. Sen jami bandalarning ibodatini, o'z tilida aytgay duolarni eshituvchi zotsan. Mening munjoitimni ham eshitgil.

Umar Xayyom yana bir ruboiysida din-dorlararo muроса-yu madora falsafasini ilgari suradi. Sh.Shomuhammedov tarjimasini:

Bizga gul tegmasa, tikan — xor ham bas, Nur yetmasa, olov — gulxan, nor ham bas. Janda to'n, xonaqoh yo shayx bo'lmasa, Qo'ng'irog'u cherkov va zunnor ham bas.

V.Derjavin tarjimasini: Если розы не нам, — и шипов вместо дара довольно, Если свет не для нас, — нам очажное жара довольно. Если нет ни наставника, ни ханэки, ни хырки, С нас и церкви, и колокола, и зуннара довольно.

Bu ruboiydagi qarshilantirish san'ati dinlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish uchun ishlatilmagan. Bu muayyan vaqtda musulmonlar o'z jamiyatining oldingi safida bo'lib, o'zga din vakillariga past nazar bilan qarash ustuvor bo'lgan sharoitda aytilgan nasihat sanaladi. Shoir bu bilan dunyoda musulmonlardan ham boshqa ibodatg'oylar borligini eslatadi. Mo'minlarni e'tiqodiy manmanlik va kalondimog'likdan hazil-mutoyiba vositasida qaytaradi. Bunda u gul va tikan, nur va qorong'ilik tashbehidan foydalanadi. Diniy bag'rikenglik va murossayu madora falsafasidek umuminsoniy g'oyalarni targ'ib etishda Umar Xayyom ruboiylari biz bilan hamisha zamondoshdir. Zero, shoirni o'zbekcha so'zlagan Shoislom Shomuhammedov bejiz ushbu misralarni bitmagan:

Xayyomdan o'qigil jahon bahsini, Undan topajaksan zamon naqshini. Aqling elagidan o'tkazib bir-bir, O'zing ajratib ol yomon-yaxshini.



Nozima ZUFAROVA, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti xalqaro turizm fakulteti dekanı, dotsent

Osiyo mamlakatlarida sayyohlar soni oshishi kuzatilib, turizm sohasiga qiziqish tobora o'sib boryapti. Shunday davlatlardan biri O'zbekistondir. U kelajakda Markaziy Osiyo turizm bozorida "yirik sayyohlik xabi" bo'lish uchun ulkan salohiyatga ega ekanini namoyon etish boshladi. Mamlakatimiz qadimgi madaniy, arxeologik va tabiiy obida va maskanlariga asoslangan noyob tarixini dunyo miqyosiga olib chiqmoqda. Ushbu jarayon uning ko'hna tarixi bilan chambarchas bog'liq.

Buyuk ipak yo'li — qadimda va o'rtasi asrlarda Sharq va G'arbni o'zaro bog'lagan qitalararo karvon yo'li (miloddan avvalgi II asr — milodiy XV asr). Bu atama qadimda ishlatilmagan. Uning tarixiy, geografik va madaniy jihatlari ilmiy o'rganish amalda olimlar tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Uning tadqiq etishga G'arbiy Yevropa, Rossiya va Yaponiya olimlari salmoqli hissa qo'shdi. 1877-yilda mashhur nemis olimi Karl Rixtqofen "Xitoy" nomli yirik ilmiy asarida ulkan Yevrosiyo mintaqasining turli qismlarini bog'lovchi yo'llar tizimini "Ipak yo'li" deb atagan, keyinchalik "Buyuk ipak yo'li" atamasi qabul qilingan.

Hozirgi kunda ham turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlar yurtimizning yirik sayyohlik maskaniga aylinishi uchun jonbozlik ko'rsatayapti. Uning qadim jihatlari bugungi kun bilan bog'lagan holda dunyoga tanitish va shu orqali turizm brendini rivojlantirishga hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston turizmi eng xavfsiz va jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallab turibdi. Samarqand shahrida yaqinda Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasi 25-sessiyasi o'tkazilishi ham buni tasdiqlaydi. Davlatimiz rahbari 140 dan ortiq mamlakat vakillari ishtirok etgan global turizm tashkilotining asosiy forumidagi nutqida sohani yanada rivojlantirish bo'yicha qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Eng avvalo, bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining jadal taraqqiy etayotgan va ishtirokchi tarmoqlaridan biri ekanini, mamlakatimizni modernizatsiyalash bo'yicha keng ko'lami va ortga qaytmas islohotlar doirasida turizm sohasi rivojiga ustuvor ahamiyat berilayotgani ta'kidlandi.



UNI RIVOJLANTIRISH QANDAY CHORA-TADBIRLARNI AMALGA OSHIRISHNI TAQOZO ETADI?

Turizm jahon iqtisodiyotining yirik va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri va dunyo iqtisodiy taraqqiyotining muhim omilidir. Jahon turizm kengashi ma'lumotlariga ko'ra, koronavirus pandemiyasidan oldin jahon yalpi mahsulotining qariyb 10 foizi va eksportining 7 foizi turizm sektoriga to'g'ri kelgan. 2022-yilda dunyo bo'ylab bir milliard sayyoh chet elga sayohatga chiqqan, bu pandemiyadan oldingi ko'rsatkichning 70 foizini tashkil etadi va joriy yilda mazkur ko'rsatkich yanada o'sishi kutilmoqda.

So'nggi yillarda 100 ga yaqin mamlakat fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etildi, yana 55 davlat fuqarolari uchun elektron viza berishning soddalashtirilgan tartibi belgilandi. Turistik biznesning barcha turlarini yuritish uchun qulay sharoitlar yaratildi, soliqlar va bojxonalar imtiyozlari berildi, kredit va moliyaviy yordam ko'rsatish kuchaytirildi. Pandemiya bilan bog'liq cheklolarga qaramay, ikki yil ichida 800 dan ortiq infratuzilma loyihasi amalga oshirildi.

Natijada O'zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar soni 2 barobar ko'paydi. Turistik xizmatlar eksportidan tushgan daromad 4 barobar oshdi. Hisob-kitoblarga ko'ra, joriy yil yakuniga qadar mamlakatimizga jami 7 million sayyoh tashrif buyuradi. 2030-yilga kelib, bu ko'rsatkichni 15 millionga, ichki sayyohlar oqimini esa 25 millionga oshirish rejalashtirilgan.

"Ko'hna tarix durdonalari" milliy dasturi doirasida sayyohlarni o'ziga jalb qiladigan madaniy meros obyektlari soni 800 tadan 2,5 mingga yetkaziladi, 745 ta madaniy meros obyekti restavratsiya qilinadi, 20 ta me'moriy yodgorlikda "ochoq osmon ostidagi muzey"lar tashkil etiladi.

"Ipak yo'li" brendini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun UNWTO maxsus xalqaro mukofotini ta'asis etish tashabbusi

mahalliy xalqlarning boy va rang-barang madaniyati, an'analari, urf-odatlar bilan bevosita tanishishi, yarmarka va festivallarda qatnashishi mumkin.

Ipak yo'li bo'ylab turizmni qayta tiklash ushbu yo'nalish o'tadigan mintaqalarda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydi. Infratuzilmani rivojlantirish — yangi mehmonxonalar, restoran, do'kon va sayyohlik xizmatlarini ochish ish o'rinlari yaratadi. Tarixiy va madaniy merosni saqlash va tiklashga ijodiy ta'sir ko'rsatadi. Turistik tashriflar va turizmning olinadigan daromadlar ushbu noyob obyektlarni saqlash va himoya qilishga yo'naltirilishi mumkin.

Ipak yo'li bo'ylab turizm turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytiradi. Sayyohlar va mahalliy aholi o'rtasidagi uchrashuvlar xalqaro o'rtasida tinch va do'stona munosabatlarni o'rnatishga yordam beradigan tajriba, g'oyava va dunyoqarashlar almashishiga yordam beradi.

O'zbekistonning turistik brendini targ'ib qilish mamlakatimizda turizmni rivojlantirishning muhim vazifasidir. Samarali targ'ibot xalqaro va mahalliy sayyohlarni yanada ko'proq jalb etish, turistik diqqatga sazovor joylar va O'zbekiston madaniy merosi xilma-xilligi haqida xabardorlikni oshirishga xizmat qiladi.



bildirildi. Bu rejani amalga oshirish bilan Samarqandda ochilgan "Ipak yo'li"da turizm" tematik ofisi faol shug'ullanadi. Bugungi kunda Buyuk ipak yo'li Sharq va G'arb o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro ta'sirning tarixiy ramzi bo'lib, uning merosi mamlakatlarda o'rtasidagi zamonaviy savdo va madaniy aloqalar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Ipak yo'li turizmining qayta tiklanishi sayohatchi va tadqiqotchilar uchun tarixiy yo'lbog'lab boy o'tirish, madaniyat va tabiiy diqqatga sazovor joylar bilan tanishishda noyob imkoniyatdir. Mazkur ko'hna yo'lbog'lab sayyohlarni qayta tiklash madaniy almashinuv kabi qator imtiyoz va ijodiy samara beradi. Bunda sayyohlar

"Buyuk ipak yo'li" turizm brendini rivojlantirish uchun axborot resurslarini yaratish, rasmiy veb-sayt yoki portal hamda ijtimoiy tarmoqlarda reklama kampaniyalari, bosma va onlayn reklama, turizm ko'rgazmalari va tadbirlarda ishtirok etishni o'z ichiga olgan brending strategiyasini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Ipak yo'li bilan bog'liq taklif va xizmatlar tarmog'ini yaratish uchun sayyohlik firmalari, mahalliy gidlar, muzeylar, mehmonxonalar va restoranlar, mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Bundan tashqari, turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun davlat va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim. Bu sayohatchilarning xavfsizligini ta'minlaydigan mehmonxonalar, turistik markazlar, yo'nalish va xizmatlarni yo'lga qo'yishni o'z ichiga oladi.

Ipak yo'lga bag'ishlangan xalqaro maqomdagi madaniy tadbirlar, festival, ko'rgazma va konferensiyalar tashkil etish ham muhim.

Bu kabi chora-tadbirlar "Buyuk ipak yo'li" brendini targ'ib qilish, sayyohlar e'tiborini, ularning tarixiy va madaniy ahamiyati haqida xabardorligini oshirishga xizmat qiladi. Turizmni kengaytirish mintaqaviy iqtisodiyoti va rivojlanishi uchun foydali bo'ladi. Chunki sayyohlarni jalb qilish daromadlarni ko'paytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy aholi turmushi va mamlakat iqtisodiyotini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Publication information including address, phone numbers, and contact details for the newspaper.